

Сирожиддин РАУФ



Сиз менга
көркесіз

Sirajiddin RAUF Siz menga keraksiz

Sirajiddin RAUF

СИРОЖИДДИН РАУФ

СИЗ МЕНГА
КЕРАКСИЗ


Шеърлар



«SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА
АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ
БОШ ТАҲРИРИЯТИ
ТОШКЕНТ – 2011

ББК. 84(5Ў)

P – 25



P – 25 **Рауф, Сирожиддин**

Сиз менга кераксиз: Шेърлар. — Т.: «Sharq», 2011. — 224 б.

Сирожиддин Рауф ижоди билан танишмисиз? Ёшлиқ, Ватан, Мұхаббат... Фараҳбахш дунёнинг рангин туйғулари бу китобни вақлашингиз баробарида сизни ўзига жалб кила боради. Улар шунчаки коғияга солинган сўзлар эмас, гўзал бир дил сир-асорларидирки, сизни ҳам дунёни теранроқ англашга чақирса, ажабмас.

ББК. 84(5Ў)

ISBN 978-9943-00-427-6

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
Ahborot-resurs markazi

© «Sharq» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2011.

21341/4

ШЕЛЬРИЙ ТЕРАНЛИК САРИ

Шеър меҳнати, шоирлик дарди бир одамга кўплик қиласиган ҳодиса. Боз устига, бугунги кунда шоирни шеърий кайфиятдан чалғитадиган, гоҳо йўлдан ҳам чиқариб юборадиган машғулотлар кўпайиб қолган. Бир чеккада мискинлик гаштини сурини, қалбига қулоқ солиб ўтирадиган Умар Хайёмни топиш қийин ҳозир. Яхшигина шеърий муждалар билан кўзга ташлана бошлаган ёш ижодкор шоирлик кўнглини авайлай билмаса, уни ўткинчи ҳавасларга совуриш йўлига кирса, тақвимдан қофия қидирадиган назмбозга айланиб қолиши ҳеч гап эмас.

Яширмайман, ўзини ҳам, ёзганларини ҳам қадрлайдиган шоир иним Сирожиддин Рауфнинг ижодини ана шундай бир хавотир билан кузатиб келишим рост. Тўғри-да, катта-кичик лавозимларда хизмат қилиб, бугун ҳам газетачиликнинг машакқатли юкини елкала боргани серташвиш одам «гулу булбул» дардига вақт топа оладими? Топса-да, қаламга илганлари бирорларнинг лафзидан тушиб қолган сийқа туйфулар тақрори бўлиб чиқмайдими?

Йўқ, шоирлик ишқи, кўнгилдаги дард теран, ҳаққоний бўлса, ҳар қандай вазиятда ҳам завол топмас, қайтага қайнаб, чархланиб, янги-янги қирралари билан товланиб чиқаверар экан.

Шоир Сирожиддин Рауф бугун бизга манзур мана бундай мисралар битяпти:

«Хали тонг отмади, йўқ, бирор марта,
Аммо минглаб туннинг сочи оқарди...»

«Бир кун менга тухфа этади сени
Ўжар нигоҳларим михланган эшик...»

Бу ёғига хавотирланмасак бўлади. Шоир шеърнинг тилини, сўзнинг жарангини топганга ўхшайди. Энди шу йўлдан тоймас: ижодкор сифатида ҳам, инсон сифатида ҳам аллақачон суяги қотиб ултурган.

Кўлингиздаги тўплам ана шу мулоҳазаларимизга гувоҳномадир.

Эркин АЪЗАМ

ВАТАН

Бу замин дарё-ю тоғлари билан
Қачон бино бўлган? Билмас бир банда.
У мозий шавкати, доғлари билан
Кизикиш уйғотар кундан-кун манда.
Ўтмишнинг турфаранг қабатларига
Ўйларим бош уриб, қақшайди ёдим:
Ер шарин мана шу сарҳадларида
Илк бор туғ қадаган қайси аждодим?

Азиз бўлиб қай кун жулдур саҳролар,
Қай замон муқаддас саналган тупроқ?
Не учун қасд айлаб келса доролар
Ажалнинг кўзига тик боқкан Широқ?

У қандай туйфудир, ҳаётдан аъло,
Қалқон қилиб ҳар дам жону жисмни,
Ғанимлар бошига соглучи яғмо,
Юракдан ўчириб кўркув исмини?

«Бирлашсак, бизники бўлади очун!»
Хайкириб, от суриб ҳам сўлу ўнгта,
Ёвга ташланаркан бамисли лочин,
Ўшал ҳисни туйғандир Алп Эр Тўнга.

«Будуним, Туроним!..» О, ўтли калом,
Қай аср ўйилдинг битиктошларга?
Эл бўлиб юрганиш бошланган замон
Алп Тегин бошмиди қутлуг ҳашарда!

Ватан, яралдинг-у ҳар бир сония
Юксалдинг, топталдинг чарх ўйинида.
Букилган қаддингни тиклайн дея,
Қон кечди Менгбурни Аму бўйида.

Конлар силқиб оқди, бағринг доғлади,
Мазлумлар охи-ю қилич жаранги.
Улуг савашларга чорлаб, боғлади,
Соҳибқирон Амир Темур ярангни.

Шу шонли курашлар ёритди йўлинг,
Тийра кечмишингнинг кундузи бўлиб.
Етти иқлим аро довруғ сололдинг,
Мирзо Улугбекнинг юлдузи бўлиб.

Тенгингни топмади дунёни бўйлаб
Не кабир зотларнинг буюк салафи.
Ўтди Навоийдек васфингни куйлаб,
Неча Хоразмийлар, неча Насафий.

Сен эдинг, шубҳасиз, Шарқнинг гавҳари —
Шеърият, илму фан, бари бунда жам.
Тегрангни дўст-ёрлар куршаган сари
Қўпайди бадкирдор ғаламислар ҳам.

Жоҳиллар фош этди йўғу борингни —
Энг ёвуз ғанимдир ғофиллик асти.
Тупроғингни топтаб, талаб зарингни
Бостириб келди-ку қизил алвасти.

Кажрафтор измида қолди ҳур ўлка,
Борликни қоплади тўфон, қасирға.
Ўлим ваҳшатини сочди кўр кўлка
Эркталаб Чўлпону Усмон Носирга.

Оғир кишанларнинг зангин кўрган эл,
Озодлик кўйида бўлгай адолар.
Тўсиқлар дош бермас тошган каби сел —
Шарқираб оққанда оққан дарёлар!..

Кўксида Ўзликни чўғдек асрраган
Авлодга юксалиш ҳар дам ярашар.
Бу қўхна маъвога нигоҳ қадаган
Тарих битигидан боҳабар башар.

Оқиллик, жүмардлик омондир қонда;
Хаяллаб қолмагай нурли келажак.
Мерос ҳуқук ила жумла жаҳонга
Ўзбек ўз сўзини яна айтажак.

Асрий синовлардан мардона ўтган
Қаддингта сүкланиб қарасам дейман.
Аждодлар кифтіда улғайған, Ватан,
Фарзанддай корингтә ярасам дейман!



ШАҲРИСАБЗ ҚЎШИФИ

Олис кечмишингга гувоҳдир Ҳисор,
Шону шуҳратингдан сўйлар ҳар чинор,
Мозийни ёритди «Авесто» тақрор,
Битикларда номинг азал, шаҳри Кеш —
Унут бўлмас ноёб ғазал, шаҳри Кеш.

Она дегай сени қанча буюклар,
Эл баҳти деб юрак-бағри куюклар,
Дунё борки, улар мудом суюклар,
Кўхна тарих эшигисан, шаҳри Кеш,
Соҳибқирон бешигисан, шаҳри Кеш.

Дерлар: бу дунёning неъмати сенда,
Ватанинг энг улуғ қисмати сенда,
Ҳазрати Баширнинг ҳикмати сенда,
Авлиёлар қўним топган шаҳри Кеш,
Эзгу ният унум топган шаҳри Кеш.

Үйғонишнинг айни оби-тобида,
Ўтди халқлар битта бошмоқ ғамида,
Тафаккурга ҳайкал бўлган обида —
Темур қурган Оқсаройсан, шаҳри Кеш,
Гўзалликда тоқ саройсан, шаҳри Кеш.

Бўлмади эл бир тан, ҳар иллат енгди,
Маърифат чекинди, жаҳолат енгди,
«Дунё маним» деган салтанат енгди,
Фарзандларинг бўлиб зор-зор, шаҳри Кеш,
Мустабиддан чекдинг озор, шаҳри Кеш.

Нечоғлик машъумдир ғаним назари,
Таланди она юрт сийму гавҳари,
Бу зулм домидан Озодлик сари
Бошлиди ўтюрак Сарбон, шаҳри Кеш,
Кулди толе, келди даврон, шаҳри Кеш.

Энди аҳилликда достон бўлгайсан,
Эзгулик барқ урган бўстон бўлгайсан,
Жаҳон ичра буюк жаҳон бўлгайсан,
Истиқлолдан баҳти кулган шаҳри Кеш
Истиқболдан кўнгли тўлган шаҳри Кеш.

2002

Оңтүстік. АРМЫНДА САЛАУЧАЛЫ

Көзінде күштілдік жағынан

Баргларида шабнамни тутиб,
Нафистина чайқалган гуллар
Ифорини ўғирлаб кетиб,
Саҳроларда йитаркан еллар
Вақт chalади бесас құнғироқ.

Бош олиб кетолмас, тун яқин,
Азоб чекар қүеш ҳойнахой.
У-ку тонгда қайтади тағин,
Заминда тургайми, шу чирой?!

Вақт құнғирогин чалаверади...

Гүзәллик бўлса-да матлаби,
Қониқолмай лаҳза умридан
Видо айтган капалак каби
Ёшликка ҳам фано хос экан.

Сен қайдасан?..

Куяди дилим,
Васлинг истаб, бўзлайман зор-зор,
Райхондан-да муттар гулим,
Шабнамдан-да покиза нигор!..

Сен қайдасан?..

Куяди дилим,
Васлинг истаб, бўзлайман зор-зор,
Райхондан-да муттар гулим,
Шабнамдан-да покиза нигор!..

Сен қайдасан?..

Куяди дилим,
Васлинг истаб, бўзлайман зор-зор,
Райхондан-да муттар гулим,
Шабнамдан-да покиза нигор!..

Сен қайдасан?..

Куяди дилим,
Васлинг истаб, бўзлайман зор-зор,
Райхондан-да муттар гулим,
Шабнамдан-да покиза нигор!..

ЖИЙГЭДИЙН АДЫЛХААНЫ БҮЛГИЙН ТОХИОН

Таджик ортиқ инонмоқ қийин,
Қалбни унсиз фарёд ўртади.
Сен борсан қайдадир... не дейин,
Ох, фарив күнглиминг эртаги?
Энди ортиқ инонмоқ қийин.

Калбни унсиз фарёд ўртади,
Топмай туриб ўйкотмоқ оғир.
Орзуларни армон бутади,
Шунираво күрдими тақдир?!
Калбни унсиз фарёд ўртади.

Сен борсан қайдадир... не дейин?
Хислар тошар бамисоли сел.
Сипқораман таҳайюл майнин,
Хаёлимга ҳаялламай, кел!
Сен борсан қайдадир... не дейин?

Ох, фарив күнглиминг эртаги,
Ёдинг ёдин ёдда тутурман.
Күринса-да умрим этаги,
Мен барибир сенга етурман,
Ох, фарив күнглиминг эртаги...

БАХТСИЗ ОЙ ҲАҚИДА ҚҮШИҚ

Заминнинг мўйлари — қатор тераклар
Кўкка бармоқларин ўқталган тунда,
Ой чачвон-булутни йўқотиб қўйиб
Хижолат чекканча қимтинар. Шунда!..

Хўрлиқдан титраган оппоқ юзини
Қайноқ кўз ёшлари ювиб ўтади.
(Чачвоннинг ўғриси шамолни бир кун
Доф тушган бу юзнинг хуни тутади).

Бу ҳолнинг гувоҳи букри осмоннинг
Кўксидаги оловлар ёна бошлайди.
«Ўксинма, кўзим» деб, ойнинг ёнига
Ховучин тўлдириб юлдуз ташлайди.

Шул асно қайси бир сайёра шодон,
Офтобга қасоскор хатлар битади:
«Энди даво излаб куйган юзига,
Суйганинг тўлин Ой озиб кетади!..»



Тақдири азалдан қочиб бўлмагай,
Йўлимда ястанган гулми, қормикан?
Жоним омон экан, умид ўлмагай,
Мени деб дунёга келган бормикан?

Йиллар елиб ўтар, ҳамроҳим сукут,
Қаҳратон унутдир, қўкламлар унут.
Лек хаёл эгнида бир алвон барқут:
Мени деб дунёга келган бормикан?

Сангидим дала-дашт, қарорим йўқдир,
Топмадим жиндак гашт, қарорим йўқдир,
Кўнгилда илинж мўл, барорим йўқдир,
Мени деб дунёга келган бормикан?

Ортга кўз ташладим мен йиллар оша,
Шу замин ўшадир, шу осмон ўша.
Киндик қоним томган, эй азиз гўша,
Мени деб дунёга келган бормикан?

Бу ўтар жаҳондан мақсад не дейин,
Куз фасли бир қадам, баҳордан кейин.
Ҳижронда бир висол бўлмаса қийин,
Мени деб дунёга келган бормикан?

Туннинг кундузи бор, кундузнинг туни,
Куёш оташдадир ой деб ҳар куни.
Мен ҳам яралганман Уни деб, Уни!..
Мени деб дунёга келган бормикан?

2000

БАКСА ДАРАХТ ҲАҚИДА БАЛЛАДА

Туш кўради чилла, саратон
синовлари қақшатган оғоч
бир вақт пушти гулларин истаб
шоҳларига қўнган сандувоч
яна қайтиб келгани ҳақда.

Туш кўради кўп йил яшиллик
нималигин билмаган бағри
куртакларга тўлиб тўсатдан
барг ёзганин...
(унут бўлиб йилларнинг қаҳри!)

Туш кўради
кўрганларидан
илдиzu танига бир ўт чирмашар.
Ларзон мевасига тумшук уролмай
кўзларин оқизиб ўтади қушлар.

Туш кўради...
ўнгида эса
тинч қўймайди бераҳм шамол
ёпишади ўхшаб канага,
ёпишару силтар ўнг-сўлга
тупроқ пуркаб бужур танага.

Офир-офир тебранар дарахт,
бедармон кексалик сўндирап шахтин,
фарёди гичирлаб чиқади ташга:
Йўқ, хали тамоммас, бари тамоммас...

Гарчи ионса-да илдизларига
суянч тополмайди хотирдан бошқа!

Мүйжиза кутмасман эртадан
Замин каби ягона, ахир,
Ибтидодан интихога йўл.

Ана, титрар дараҳт учид
Лаънат ўқиб аччиқ қисматга
Сўнгти япроқ — энг сўнгти нола.

Қайга шошдинг, қайга фифоним?..
Яна қандоқ таъбирлар кутар
Сувларга айтмаган тушимни...



КЕСЕ ДАСЫРДА

Умр ўтса фафлатни кеча,
Кунлар бир-бирига ўхшайди.
Бой берилган имкон бу — Кечада
Ва Бугундан күнгил тўлмайди.

Судралади ҳар бир дақиқа,
Куёш ботиб, тонглар отади.
Тушуниксиз қадим ақида —
Хаёт қалбга тошдай ботади.

Нимадир кутасан дафъатан,
Кетолмайсан силкиб этагинг.
Ўзинг ҳам билмайсан, авраган
Ёлғон ваъдасими Эртанинг...



Гарчи илов, эъзизизардиги
Сияғи деготидайж котидай борчади

* * *

Бардошим тугади, тугамас бу йўл,
Бу йўлда санғиган умидлар етим.
Юрак бўм-бўш, кўзим ёши кўл,
Тоғдай тоқатимнинг тоқига етдим,
Бардошим тугади, тугамас бу йўл.

Бу йўлда санғиган умидлар етим,
Мени сарсон қилган жилвагар сароб.
Йўллар-ку кўп эди синашта, қадим,
Нотаниш сўқмоқни танладим у тоб,
Бу йўлда санғиган умидлар етим.

Юрак бўм-бўш, кўзим ёши кўл,
Нимага ярарди энди бу корим?
Йўлимда унмади мен истаган гул —
Бебақо дунёда бевафо ёрим...
Юрак бўм-бўш, кўзим ёши кўл.

Тоғдай тоқатимнинг тоқига етдим,
Заминнинг тоғлари тубандада қолди.
Ўткинчи дунёning ҳавасин нетдим,
Жафолар Ҳақ ишқин кўнглимга солди,
Тоғдай тоқатимнинг тоқига етдим.



* * *

Тун қариди
Менинг ширин тушимни ичиб.
Тун қариди
Күзларини
Юмди охиста
Соч-соқоли оқарди тамом.

Воажабо,
Бу не синоат,
Ақл бовар құлмас мұъжиза:
Энтикирди бутун оламни
Кекса туннинг
Рангин жамоли.



ЎТИНЧ

Боқайин тақдирга бир дам ишонч-ла,
Етар, шубҳаларнинг беллари синсин.
Энг сара нигоҳинг менга бағишила,
Бир фахр кўксимда чечакдек унсин.

Кўзингда нигоҳлар қониб сехрга,
Сўнгра сочиларкан, у — абри найсон,
Бағримни бўшатиб бергай меҳрга
Рашк дея аталмиш кўп ёвуз йилон.

Оташин туйфулар ёқсин дилингни,
Сен менинг бугуним, сен менинг эртам.
Кел энди, қўлимга қўйтил қўлингни,
Холимга бепарво қарама, эркам.

Ишон, фалак суйса, бизни суяди,
Чулғагай бизларни офтобранг шуъла.
Юрагим қаърида бир сўз куяди:
«Энг сара нигоҳинг менга бағишила!»



Күёш кўкка қадалган пайти,
Тирикликтинг энг маъсум байтин
Кўшиқ қилиб сойларми айтди...
Ишқим қалбда чўғланди ял-ял.

Мехрин менга кўп кўриб гуллар,
Ўтган эди неча ой, йиллар,
Бу чарх тағин не пайғом йўллар?..
Ишқим қалбда чўғланди ял-ял.

Мухаббат деб тўкилган эдим,
Тақдиримдан ўкинган эдим,
Толеимга юкинган эдим,
Ишқим қалбда чўғланди ял-ял.

Умр йўл деб айтмишdir башар —
Жим борурмиз қай томон бошлар.
Билмасмиз не йўллар туташар,
Ишқим қалбда чўғланди ял-ял.

Шундоқ ғалат хаёт ўйини:
Бир кўрсатиб ёрнинг бўйини,
Кўзғотди-ку, хислар қуюнин...
Ишқим чунон чўғланди ял-ял!

СОНЕТ 1

Киприкка илинмас уйқунинг тўри,
Узун тун кўксимда орзиши, ҳовур.
Хаёлинг ҳабибим то тонгга довур,
Субҳидам сезилар ҳасратнинг зўри.

Офтоб фамзасида мужда кўринур —
Рўёни чилпарчин қилган ҳақиқат.
Сен — кўнглим кўшқида кўхлик кўҳинур,
Ўнгимми-тушимми, тарк этма факат!

Зеро, ишқ сўқмоғин бор-йўғи жафо,
Ундан юз ўтирумак хурофот, бидъат.
Ошиққа ҳамиша тахайюлраво.

Умидвор кўнгилда бокий муҳаббат,
Ишқсиз умр ғариб, диллар бенаво.
Мудом ўйимдасан, илохий талъат!

2000



Сиз менга кераксиз,
қақраган лабларга
зарур томчи сув
ва ёким
қүшларга қүш қанот
шаксиз
ҳаёт аталгандек
кераксиз илло.

Сиз менга кераксиз,
хар лаҳза ўйлаб,
ҳис қилиб ҳар лаҳза
нафасингизни
бир оташ соғинчдан
музлаб бораман.

Мен кулбаман
туннинг қаншари
бутун ваҳшати-ла
ўйиб чизилган.

Сиз шуъласиз,
ҳадя этиб
қатра табассум
қўркувимни аритувчи куч.

Кимлигимни
ўзим биламан,
қўймади
Сизни-да яхшироқ билмоқ истаги
кўнглингизга юришлар қилдим.

Кўрдим
ул маъвода нелар борлигин
фақатгина
менга аталган.
Ўша Нелар
қувват бўлади
тағин бир оз яшашим учун.

Сиз эса бепарво
боқмайсиз ҳатто
ерпарчин вужудга
айлаб бир карам.
Уни хароб этар
эзиб тобора
андак ғуур ила
тоғдай сабрингиз.

Сиз менга кераксиз,
күнгил водийси
минг йилларки йўқотиб қўйиб
интизор қўзлаган
покиза насим.

Гарчи аён
сарҳади йўқ тасаввур
қудрати ҳечdir
Сизнинг таъриф-
тавсиф олдида.

Бироқ
барча ҳақиқатлар маънисиз менга
бағримда яшаркан
муниis мухабbat.

Токи шовулларкан
хаёт дарахти
кўксимда авайлаб
хисларга чирмаб
муқаддас дуодек
такрорлагайман
умримнинг мазмuni
ифорий сўзни:
«Сиз менга кераксиз!».

САБОҚ

Рухингни куйдирса саволлар
Саратоннинг чўғ қуёши каби.
Юрсанг,
Тизгинсиз ўйлар етагида
Биянинг ортидан қолмас кулундай
Ва хаёт нелигин англамоқ бўлсанг,
Сен албат йўлингни денгиз томон бур.
Куруқлик сирларидан айрича,
Фаройиб сирларга бағри лиммо-лим
Буюклик қошида сукут сақлагил.
Бир-бирини қувиб ўйнаган
Бегам тўлқинларнинг қўшиғин тинглаб,
Тушуниб етасан:
Ўзи қизарип
Жўякларга ранг бера билмас
Кулупнайдир хали ўйларинг.
Шу ўйларни кун ўтиб бир кун
Мангалик яратсин, десанг мукаммал,
Сокин фалаёндан сабоқ ола бил...
Ишонгин,
Соҳилни тарқ этар онингдан
Хаётта боқасан тундай хотиржам.





Майсани майсадек күрдим мен,
Харсангни харсангдек, гилни гил.
Ёмғирни булутдан сүрдим мен...
Тангрим, күрлигим-чун кечиргил!

Офтобга тобланиб яйрадим,
Зилол сувдан симирадим қона.
Тилимни санога қайрадим.
Дахри дунга бокдим ҳайрона.

Асрий тоғлар ҳайбатин туиб,
Ақлу ҳұшым тамом адашди.
Кийимларин иргитиб, кийиб,
Теграмда юз фасл алмашди.

Ҳайрат бўлди дарахтда битган
Ризқ ҳам ҳатто яширмам, э воҳ.
Мўъжизангдан мўъжиза кутган —
Мен ғофилни кечиргин, Оллоҳ!

Воҳ, саждага бошимни эгдим,
Сени билмас бандалар мискин.
Кўп такаббур, кўп дахрий эдим,
Бироқ раҳминг кўнгилга таскин.

Ҳақ деб яшаш — улуг ҳидоят,
Рўй беражак бирдамас бирда:
Ишқинг туғён ургай ниҳоят
Ё Раб, уч юз олтмиш томирда.

Бу оламни этолса горат
Мажнунлигим овозалари.
Ужмоҳ сари очилгай шояд
Асл Ватан дарвозалари!..

КҮК ГУМБАЗ

*Карши шаҳридаги XVI—XVII асрға мансуб
тарихий обида қошидаги ўйлар*

Долғали кечмишнираво кўрибди,
Сени суронларга ташлаган қисмат.
Мангалик қаҳқаҳа уриб турибди,
Бошингда йилларни қиличдек сермаб.

Мағрурсан, елкангда асрлар чанги,
Пойингда тин олар сахроий еллар.
Ўтди не замонлар ўчганча ранги,
Қарайсан: яна не давронлар келар.

Шарафга гувоҳсан, хўрликка гувоҳ,
Барчасин ўйласам, шошади ақлим.
Мўминлар тилидан тушганда Оллоҳ,
Илк бор кўчиб тушган фиштларинг балким.

Кўрдинг, вакт уммонин тўлқини билан
Неча дов-дараҳту хаслар ўтдилар.
Хасадда тўлғониб, сени заминдан
Супурмоқ истаган каслар ўтдилар.

Кўйнингдан олтину гавҳар излаган
Ёвузлар қўлида неча тўп кўрдинг...
Энг мушкул дамда ҳам Ҳақ деб бўзлаган,
Дилида худоси борни кўп кўрдинг.

Нилий нақшларда ўйнаган офтоб
Ҳамсухбат бўлгандир сенга гоҳида.
Сен — нокас ўтида ёнмаган китоб,
Ўтмиш ва келажак оралифида.

Болангман, бош уриб тавоффа келдим,
Хотирот кунжлари ёрищди элас.
Даврлар ўткинчи, сен боқий, билдим,
Олис болалигим осмони — гумбаз!



* * *

Бағрингда беш қунлик мәхмөн бўлдимми?
Эй, ота маконим, эй она тупроқ!
Бошда қиров, энди қадринг билдимми?
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

Туғилмоқ — ўлмоқ деб айтмишлар... қайдам,
Сенда кўз очибман, ўлимлар майда!
Умр — коғоз кема бамисли сойда,
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

Болалик гаштини тотганим эсда,
Оёқяланг бўлиб чопганим эсда,
Баҳорда бойчечак топганим эсда,
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

Кўйнингдан хас каби учирди тақдир,
Гоҳ у ён, гоҳ бу ён кўчирди тақдир,
Феъли кенг отамдек кечирдинг охир,
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

Мұҳаббат шунчаки бир эрмак девдим,
Бир қизни лахча чўғ, ўт бўлиб севдим...
Сўнг ҳижрон, азобга эш қилди севгим,
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

Кувонсам, ул севинч ёшимда бўлдинг,
Фам чексам, шу рухсиз лошимда бўлдинг,
Ҳамиша ўйимда — қошимда бўлдинг,
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

Мен фано илкида, бақодадирсан,
Кўзимга суртгудек озодадирсан,
Муштипар онамдай дуодадирсан,
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

Хануз анголмадим ўзим ўзимни,
Мангу юмар бўлсам бир кун кўзимни,
Ўзингта ишонгум ўғил-қизимни,
Эй, ота маконим, эй, она тупроқ!

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК ЖАХОН ЧЕМПИОНИГА

Сен учяпсан...

Мўъжиза юз бермас дея ишонган
Фанимлар кўксига бир армон қишилар.
Парвозинг пойида асов денгиздай
Тўлғониб-тўлғониб гувлар олқишилар.

Сен учяпсан...

Шамол бақраяди, унинг карвони —
Булутлар тарқалиб кетади шу тоб.
Милён тилсимларга гувоҳ бўлса ҳам
Хайратдан оқариб боради офтоб.

Қайга ахир,
Ахир нимага?!
Беадад саволлар қолар жавобсиз.
Бир меҳр кўзингда чўғдай ёнади,
Гумроҳлар англамас кўзларни, эсиз.

Йўқса ўқирдилар кўнгил лавхини,
Кўзларда акс этар мисли аланга:
«Менга қанот бўлган кўк ишқи эмас,
Оташ муҳаббатим она-Ватанг!»

Учяпсан!
Юртнинг осмонига ойдай ярашиб,
Йўқотиб қўяди қушлар ҳушларин.
Ёдингга тушади, юрагинг тўлиб,
Маъюс кузатганинг бир вақт қушларни...

* * *

Дунё, қўйнинг тўла умрлар чил-чил,
Товоним қаварди ўтганим сайин.
Бетизгин, беманзил ўйларим зил-зил,
Бир кам не бор яна ўзи сендейин?..

Сен мангулик томон, мен бир ўткинчи,
Қўй, эрмак қилмагин араз-ўчимни.
Ногоҳ тилга кўчар дилим ўтинчи:
— Нима қилиб қўйдинг, ўттиз учимни?!

Пойингга йилларни хазондек сочдим,
Гоҳ дилхуш, гоҳ дилхун лаҳзалар билан.
Нимани англадим, не сирни очдим —
Йўқликка узатдим ларзалар билан.

Тошбақа мисоли имиллаб гоҳ кун,
Чақин шиддатида кечди даврлар.
Атрофга сер солиб қарасам бугун,
Қанча танишим йўқ... қолмиш қабрлар.

Наҳотки, ўйлайман, инсон тақдири,
Олдиндан ҳисоблаб чийланган қарта —
Мағлублик қисматдир азал-охири,
Гарчи ўйналса-да фақат бир марта!..

Шундоқ ўтар бўлса ҳаёт дегани,
Нечун фамга ботай, нечун иршишлай?..
Лекин руҳимдаги дардни енггани
Нажот қайдада? Мен жонимни бағишлай.

Нима бор, кўрсатгил, жондан-да азиз —
Софиниб, сифиниб юкинадиган,
Ранжу аламига шукр деб ҳаргиз,
Усиз ўтган дамга ўкинадиган?!

Дунё, сир-асроринг йўқдир якуни:
Ҳаёт — хижрон, ўлим — висол, зафардир.
Билсам, яшамоқнинг бор-йўқ мазмунни
Ҳақнинг даргоҳига илинж, сафардир.

ЯНГИ ЙИЛ ОҚШОМИДА

Ташқарид ажиб бир ҳолат. Дилда
Қор соғинчи каби бир мубҳам түйфу.
Хайқирдим, қўл чўзиб гўёки қилга:
— Эски йил қаърига чўкяпман, ёху!..

Танамни кутқарар дўсту ёронлар,
Бироқ руҳим қайдা, ҳеч ким билмайди.
(Ҳар қандай илтифот ғашим қўзғатар,
Қадрдон ҳислардан кечгим келмайди).

Шодон давраларда табриклар янгар,
Янги тилакларга айланмас тилим.
Оҳ, маҳзун ҳолимни бунда ким англар?..
Кўзимда шашқатор кўнглимнинг сели.

Ўтмишга алвидо десам батамом,
Балки эрта бир кун афсус қиласман.
Лекин муҳаббатим — ул эски армон,
Ул гўзал қайғумни топа билмасман...



КҮНГИЛ МАНЗАРАЛАРИ

I

Зардоли гулидай түзгиди йиллар,
Умримдан юлинган кунлар чирпирак.
Үттиз йил ёлбориб, бир нарса тилар
Бу юрак!

Күёш ҳар тонг тоғдан ошади,
Зарларин элайди замин устига.
Күнгил косасидан күпчиб тошади,
Орзиқиб кутилган дийдор қасдида.

Камалак нурлари инган шаршара
Чүккилардан учеб «бир гүзал синди».
Интиқлик забтига олса сарсари
Умидинг тафтидан орзум исинди.

Чечаклар анбарин йўлларга тараб,
Қирга қайтар шамол — ҳориган тўриқ.
...Хозирча кунимга турибди яраб
Менинг дардим билан оғриган борлик.

II

Мен дарё
шиддатли тўлқинга илҳақ,
Қақраган қирғоғим кучмадим кўпдан.
Мен сахро
саратон кўйнида чатнаб,
Уюр-уюр булут тиловчи кўқдан.

Илдизман, шохлари гарчи ям-яшил,
Ўзи эса ҳануз сувга етмаган.
Мен ўша, алхазар, парча қўрошин,
Ўқ бўлиб кўкракка, шукр, ботмаган.

Мен ўша, бир имдод тополмай нолон,
Даралар бўғзида қотган илтижо.
Мен ўша, зарб ила отилган пайкон —
Учяпман, учяпман бенишон, бежо.

Мен ўша!..
Тұмтайиб, гоҳ қулиб ўтар таққослар,
Күксимни ёргудай потирлар құмрим.
Хилол күк тоқига ўзини осар,
Кутишга айланиб бормоқда умрим!

III

Охиста-охиста синади оғоч,
Сим-сиёх тун ичра сингади унлар.
Күнгил зориллайды, күнгил жуда оч,
Мени таъкиб қиласып ишқталаб кунлар.

Наҳот факат тушда орзум ушалар,
Наҳот тушда факат топгум ойдинлик?..
Нотанти тақдирдан дилим ғашланар,
Бироқ... күкда ой ҳам гоҳо бир тилик!

Қачон түлгән ўзи ками дунёнинг,
Бирдек айланғанми күхна чархпалак?
Бу дунё мулкидир асли рүёнинг,
Факат мангу умид — ям-яшил палак.

О, яшил туйғулар, бор бўлинг ҳар дам,
Ал-амон, ал-амон, минг бор, ал-амон!
Теграмда ҳазонрез қах-қах урса ҳам,
Барибир мен тинсиз яшилланаман...

* * *

Балки дунёдаги жамики сўзлар
Сенинг таърифингга арзимас, эй моҳ.
Бўлса ҳам қўёшдек улар зўр оташ,
Энг хушбўй гуллардан яна хушбўйроқ.

Хуснинг таърифини ишонгин менга,
Ул қадим сўзлардан қўмак тиламай —
Битта сўз айтаман, тап-такир чўлда
Очилиб яшнаган кирмиз лоладай.

Хуснинг таърифини ишонгин, дилбар,
Фақатгина менга, бошқа ҳеч кимга.
Сен дея яралиб, оламга бир бор
Бўйин кўрсатмаган Сўз бор кўксимда!..



БИР КУН

Бир кун менга тухфа этади сени
Ўжар нигоҳларим михланган эшик.

Бир ёруғ умидга интиқ кўнгилдек,
Ажиб ташрифингдан ёришар кулбам.

Жонимдан-да азиз бошингга сенинг
Ёстиқ бўлганидан яйрайди кўксим.

Шунда изтироблар ҳақинда сенга
Эртаклар сўйлайди соғайган юрак.



* * *

Кўм-кўк майсалардан кўрпача тўшаб,
Күёшни куйманиб чорлаган далам,
Бағрингда яйрасам гўдакка ўхшаб,
Қалбимни тарқ этар балки оҳ-нолам.

Ёки тун зулматин эгнимга кийсам,
Абад сукунатнинг тутсам баридан,
Халос этарманми Севгининг муқаддас азобларидан?

... Садақа тилаган тиланчи каби
Мен жавоб кутаман саволларимга.
Жавобга очилмас тоғларнинг лаби,
Дарёлар қайрилмас асло зоримга.

Ноилож
Жавобни ўзим излайман —
Ёлвориб ўйларга:
«Мени тинч қўйинг...»
Хотирам деворин тирқишиларидан
Сизиб кираверар
хаёлинг, ўйинг.

АРМОН

Уйғондинг,
Рухингда гуллар очилган —
Ишониб киприклар тўқиган тушга.
«Рост бўлса, аҳдига умр бер, ўзинг»,
Ер бўлиб ёлбординг самандарқушга.

«Шамолдек елсаму пойини ўпсам,
Кўксимга бош қўяр унут дард мисол», —
Кўзларингда тинсиз айланаверар
Райхоннинг сувига чайилган хаёл.

Умидни орқалаб, чопасан хушбахт,
Еллар йўл бўшатиб, ҳайрон боқишар.
Қанотим ийқ дея куйинма ҳаргиз —
Харқалай, қувончинг узокроқ яшар.

* * *

Күркма, бу хавф ўтиб кетади,
Күрмагандек бўласан охир.
Хавотирда қанча хатарни
Ўткардинг-ку, эслагин ахир.

Кўрқяпсанми, демак улардан
Ололмабсан керакли сабоқ:
Хар қачон ҳам кутилган хавфнинг
Вахимаси ўзидан зўрроқ!

Гугурт донишади юнга ўтиб ёзиши
Мойда илмийларни таъминлантиришади
Онро туттишадигане битини майдон, дил
Кади чинчанинг ўтиб ёзиши таъминлантиришади

Чирда савида яшади юнга ўтиб ёзиши
Бар бемондик инсанларни таъминлантиришади



Корка савида юнга ўтиб ёзиши
Руғони китилиши таъминлантиришади
Хонгумондомони ўтируни ўтиб ёзиши





* * *

Бир сўз бор,
Номус деб тўкилган қондек мўътабар.
Қуёшнинг илк нурин ичиб кўз очган,
Борликқа кўрк бўлган гулдек муаттар.

Бир сўз бор,
Хар бир пок оғизга бирдек ярашган.
Бу сўзнинг соchlарин Тўмарис момо,
Муқанна боболар суйиб тарашган.

Бир сўз бор,
Унга етолмаган ҳали кўп миллат.
Шу сўзни унутиб яшаган элнинг
Еган nonи бўлмас асло bemиннат.

Бир сўз бор,
Йўл эрур у мангу vasлига Ҳакнинг.
Пешонаси ойдан, тонгдан-да ёруғ
Шу сўзни туғ қилиб кўтарган халқнинг!

1990



ИЛТИЖО

Орзулар — оромнинг ёвуз рақиби
Қонимда жо бўлиб, зўриқар томир.
Идроким қуввати нурамай, битмай
Бир кун поёнига етгайми умр?..

Мушук човутидан зада чумчукдай
Мендан қочаверсин имкониятлар.
Уларнинг ортидан қувиб тинмаган
Иштиёқ сўнмаса, шул ўзи етар.

Гугурт донасилик пов ёниб ўчар
Майда қувончлар деб юрмоқдан карахт,
Бир ёруғ нафратга эш бўлиб, мағрур,
Қайгуанинг соchlарин силамоқ ҳам баҳт.

Парвоз этаверар ҳумо қушлари
Фарид бошим томон назар ташламай.
Турфа хил маломат, дарднинг тошлари
Нолишга йўл бермас, «сийлаб» ҳарқалай.

Вақт — тулпор устида учиб бораман,
Юракда умид бор — чамандир йўлим.
Бу сайд кўнгилга тегмасдан бурун
Жонимни олмоққа улгиргин, ўлим!

Бошингда не хаёл? Кетяпсан!
 Менга Мугузли азобни рўпара қилиб.
 Сен тушган сўқмоқда ёлғиз чирилдок
 Чўзиб нола қилар қўксимни тилиб.
 Отини эгарлаб чиқса-да булат,
 Осмон чехрасини ҳали бузмаган.
 Титрар бармоқларим — қўрқоқ балиқлар
 Сочинг денгизида қониб сузмаган.
 Микти орзуларни совуқ бир эпкин
 Ёнғоқ пўчоғидай кетар учириб.
 Севинчлар ниш урган у тотли дамлар
 ... Хотиранг бағрида қолмасми чириб?
 Жавоб бер!
 Кечмиш хотиралар умри сен учун
 Ярқ этган чақиндек наҳот бирпаслик?
 Балки сени қийнар мендаги ўт ишк...
 Мендай севмоқликка қодир эмаслик?
 Кетяпсан!
 Дунё тароватин кўзимдан юлиб,
 Мен томон эмаклар малъун айрилиқ.
 Ул касдан атрофим чамбара қилиб
 Бехуда уринар умид қилтириқ.
 Ўпар изларингни озурда товуш,
 Турналар учади — кўзида малол.
 Сен эса адоксиз мунгларни экиб,
 Кетяпсан!
 Бошингда бир телба хаёл...

* * *

Тортар хаёлимни хира бир юлдуз,
Унинг милтираши биз-чун бехуда:
Сезилмас иссиғи, ёруғи сўзсиз,
Папирос чўғига ўхшайди жуда.

Қиёсим тўғри деб жар солмасман, йўқ,
Коинот сирлари шундайин чигал:
Кенгликлар бағрида ўша жиндай чўғи
Миллиард одамларга қуёш, эҳтимол.

Китобнинг беътида — яшчайчай оидатан
Гулчаликни ўзига келди, яшчайчай оидатан
Чўярбозни ўзига келди, яшчайчай оидатан
Ё лику «Иншадидонор» кўзинчи йўлни оидатан




ХИЁНАТ

Эркак күзларини нафрат ялади,
Бир алам ўтади күнглини бузиб.
Зор йиглаб хотини шафқат тилайди,
Хиёнат силаган құлларин чўзиб.

Сўз демай, чилпарчин қалбини олиб
Эркак жўнаб кетар бу бадбаҳт уйдан.
Нафратнинг ёғида жизғанак бўлиб,
Аёл нажот излар хотирдан, ўйдан.

Эслайди: сирли боғ, фаройиб оқшом,
Илк бўса тотини, бари-барини.
Лек билмас нимага ловуллар юзи,
Нима куйдирмоқда товонларини?..



АЛТИ * * * ЖАҲ

Осмоннинг мулкида юлдузлар шўх-шан,
Заминга кулгулар тўқаверади.
Кулгуга чўмилган шу тунда бедор
Хар юрак Мұҳаббат туғаверади.

О, малак, юзингдан ойлар нур тилар,
Сочингни тун дея тўёзғитди шамол.
Бир бедор юракнинг эгасиман мен,
Туғилган гўдакка келгин, назар сол.

Юракнинг боласи — шўрлик мұҳаббат
Ташнадир, ичиргин, бир томчи Мехр.
Мұҳаббат улғайсин, усиз бу олам
Юпун бир гадодир, кўзлари сўқир.



ХАЛҚ ОҲАНГИДА

Қай кун ҳассос табиат
Сени бундоқ гул этди.
Тушиб ишқинг учқуни,
Жигар-бағрим кул этди.

Үртанаρ энди кўксим
Чидолмасдан бир ҳолга:
Тундайин сочингтамас,
Ватан, ахир, шамолга!..

Висолингга сифиниб
Ўтган кунлар туллади.
Юрагимда юз минг дард,
Қайфу-ҳасрат гуллади.

Сенсиз менга тириклик
Куйлари кўп ҳазиндири.
Қалбда ҳижроннинг тифи
Кипригингдай узундири.

Осмоннинг бир бурчида
Юлдуз кулса қўзингдай,
Софинчнинг зил юкига
Ҳаммол йўқдир ўзимдай.

Келгин, энди тоқат йўқ,
Карам этгил, суйгилим.
Азобларга чек қўяр
Ё висолинг, ё ўлим!



* * *

Рангин болаликка алвидо айта,
Югурик Вақт бир-ла елиб кетяпман.
Англадим: умр — сув, оқмагай ортга,
Болалик қадрига энди етяпман.

Майса хотирамни шабнам сўзларим
Бир куни безайди — умидим бордир.
Хали кўп баҳорга ташна кўзларим
Ўн саккиз баҳорни ютиб юборди...

Баҳорки, ҳар бири умримга безак,
Уларга қўшқўллаб меҳримни бердим.
Айниқса, сўнг кўрган баҳорим бўлак —
Илк севги гулларин шу фасл тердим.

Энди бу гулларни бағримнинг чуқур,
Мустаҳкам ерида асраломим шарт.
Токи бу гулларга бургутдек учқур
Йилларнинг шамоли қўндириласин гард.

1985



МАКТУБ

Қийинми, пурвиқор тоғлардек бесүз,
Намойиш этмоқлик улуғворликни.
Үрганмоқ, зерикмай бамисоли күз,
Инжа бир дийдорга абад зорликни.

Ё яшаш денгиздек сиртдан тинч, бироқ
Ичда минг түйөнни шундок яшириб?...
Лоақал мумкин-ку, ишонинг, севмоқ,
Севаман, деб сира ҳайқирмай туриб!

Лоақал мумкин-ку, ишонинг, севмоқ
Севаман, деб сира ҳайқирмай туриб!



Лоақал мумкин-ку, ишонинг,
Севаман, деб сира ҳайқирмай туриб!

Лоақал мумкин-ку, ишонинг,
Севаман, деб сира ҳайқирмай туриб!



* * *

О, буюк муҳаббат, ям-яшил денгиз,
Пүртана бағрингга ўзимни отдим.
Сирларга лиммо-лим чексиз қўйнингда
Бир инжу кўрдим-у, яна йўқотдим.

Ёйлайман, ул инжу дийдори секин
Хотирам боғида тиклана бошлар.
Ҳажрида ўртаниб ёнган юрагим
Кўкрак қафасимни куйдириб ташлар!

1984






* * *

Кон сачради —
Күёш кўксига
Рақиб урди пичокни чоғлаб.
Оғриқдан зўриққан борликни
Қоронгулик олди қучоқлаб.

Хавотир-ла боради эриб,
Ой — ёруғ умиди осмоннинг.
Интизор кўзлардир юлдузлар
Ташрифига ҳамшира — тонгнинг.





Йигирма бир йилки, кўксимга қамаб,
Авайлаб асрایман бир қушни яккаш.
Бу қушнинг меҳрибон соҳибасини —
Бокира бир қизни топмай кўнглим фаш.

Тақдир учратаркан не-не гўзални,
Кушгинам кўксимда ногоҳ титрайди.
Афсуски, мен уни ўзимдан бўлак
Хеч кимга ишонмам, кўзим қиймайди.

Ҳануз эгасини топмаган қушнинг
Интизор ёниши эзади мени.
Ёдимдан ўчмагай: бир кун тушимда
Қайси бир сулувга топширдим уни.

Топширдим мен уни. Билмай сулувнинг
Меҳри ҳам сочидек қисқа эканин...
Энди ўнгимда ҳам жонимни тирнар
Тушдаги сабоқнинг ўткир тикани.

Шубҳалар ўтига дош бериб аранг,
Таҳсин айтмасам-да bemavrid тушга,
Эрк тагин қанотин қайирмасин деб,
Ёрдам беролмайман бечора қушга.

1988

СОНЕТ 2

Бир кун учажакман мен кўкка озод,
Бетакрор парвозга лол боқасиз, лол.
Бир бўрон шиддати қалбимда, хайҳот,
Бағримда бўлади юлдузу ҳилол.

Теграмда юзганча булутлар сокин,
Маҳзун юрагимни этгайдир обод.
Билмасман ўшанда недир ором, тин,
Учгайман беармон, гарчи беканот.

Мен етган юксакка етмай бир бора,
Соҳиби қанотлар — кушлар бечора,
Тиккайдир кўзларин менга кўп ўчили...

Учаман. Бу ерда шубҳа нокерак,
Қалбимда потирлар ишонч ва истак —
Ҳар не қанотдан-да минг карра кучли!

1987

ФАХР

Бахт насими нозланиб эсган
Тоғдай Ишонч этакларида
Орзуларнинг рангин чечаги
Мухаббат бўйидан қониб ўсгувчи
Тенгсиз бир Олам бор оламда.

Менман ўша бекиёс Олам —
Бағрида сенданин Қуёши бўлган!

1984

Иттоға фо, ишниң, у вийя янени
Коридор за хонима, яхши тарбия
Симбек ғитих ғадмои яхшици
Ҳалло, шашлик, чашма, тунур пойтоғи
Чарвони жар, ёндоғи тўйиҳурини
Ўзимни узутсан ғидоб узумни

Дине шитъауду фарзанди кимни
Но курбонга ишончнама, ишонча



Мартинар, яхшидан оиди, яхшидан оиди
За иш, яхши оидсан, яхшидан оиди
А, Мизотидон гулистанни муроҳуд, сўнин, душт
Ан, гарнай, не салад, яхши, гулжонни



* * *

Илохи, чўмаман ўйлар қаърига,
Елдирим умримга излайман маъни.
Кўхна мажозлардан қочиб нарига,
Мен кашф этажакман, билмам, нимани?..

Бесабр кўнгилда ҳаваслар гирён,
Бу жоним шуҳрату мурувват қули.
Келмагу кетмақдин мақсад ноаён,
Қачон юз кўрсатур чин ҳаёт гули?

Сўнг манзил қайдада у, аршми, ер ости,
Тириклик шомида хотир абасми?
Наҳотки чўнг қайфу – ўлимнинг дасти,
Ё таним руҳимга жонли қафасми?

Кўзимга саволлар сувратин чизиб,
Сангидим заминнинг ўру қирида.
Ҳайратим минг бўлди, қонларим қизиб,
Идроким етмади гардун сирига.

Ночор қулоқ тутдим тоғу тошга ҳам,
Фалсафа тўқиди қадим бир харсанг:
«Сен фоний дунёда бебаҳо одам,
Вужудинг тупроққа тенглигин билсанг...»

ТАЗАРРУ

Югуриб чарчадим, етар, энди хўп,
Юрганим кўнглимнинг етакларига.
Зор қақшаб топгандан йўқотганим кўп
Ёпишиб дунёнинг этакларига.

Холбуки бирордан камим йўқ эди,
Хойю ҳавасларин кўрдим оламнинг.
Таъкиб этаверди армоннинг хиди —
Саждада ўтмаган умри одамнинг.

Кимдан юз ўгириб, кимга тикилдим,
Фаддор нафс пардаси тўсиб кўзимни.
Ишвалар пойига тутдек тўкилдим,
Ўзимни унудим ўйлаб ўзимни.

Не кўрсам лол бўлдим маҳобатига,
Баридан тутмадим ҳар дам илмни.
Энди зор турибман иноятига,
Химматнинг кўрига тоблаб дилимни.

Жонимга азоблар сўрарман беҳад,
Ва ишки кўйида хорлик, адолик.
Жамолин кўрсатса бир кун Ҳақиқат,
Англарман: не шараф ушбу гадолик!..

Минг битта хавотир жонимни чўқиб,
Кўнглимнинг бисоти — эзгу дардимни
Ахийри мен сенга инондим, гўзал.

Бир ўтинч қуидирар энди дилимни:
«Сен мени ўзингдан ортиқроқ севма,
Ўзимдан ортиқроқ мени тушунгин!».



* * *

...2a

Биламан, сен мендан кутяпсан бир гап,
Истайсан, севдим, деб ёрилмогимни.
Иқрормас, изҳорлар кўпайган пайтда,
Изҳор деб қийнама тағин жонимни.

Холбуки, кўз ёшдек тиник севгимга
Керакмас, ишонгин, заррача изоҳ.
Ишқимга муҳаббат дардлари чўккан
Маъюс нигоҳимнинг ўзи, бил, гувоҳ.

Яхшимасми, офтоб абадулабад
Порлагандек фақат само бағрида,
Яшаса севгимиз тилларга кўчмай,
Маъсум қалбимизнинг кенгликларида?!

1985



* * *

Жуда тез ишондинг,
Ўтмиш қора китоб эканлигига.
Ишонгандек калтабин одам шаклин йўқотмасдан оловда музнинг
пишмофига бирам қизариб.

«Сен ишни ўзингдай сортилар»,
Зеро билар эдинг, шу қора китоб
фақат сеникидир, ўзганинг эмас,
қуёш — олов коптот (асрлар гувоҳ)
ёлғиз осмонники бўлгани каби.

Аммо сен (бу не кўргулиқдир ўзинг айт, фалак!)
улоқтирдинг китобни четга — ўзанидан воз кечган дарё!
Сенга тинчлик бермади ахир,
қиртоққа интилган тўлқин сингари
кулофингта урилиб турган
«урушқоқ» боболаринг олис «урҳо»си!

Энди,
қармоқнинг бандиси — очқўз балиқдек,
жовдира-жовдира кўзларинг ночор,
ичингта ютганча зилдек аламни,
tinglaisan,
бобоси бобонгдан мушт еган каснинг
ўтмишинг ҳақида қироатини...

1990



* * *

Устоз Икром Отамуродга

Сукунат кўксиди кезади шовқин,
Туркистон тунини тутмоқда тўлғоқ.
Оғриқ кўп ҳаддидан ошган лаҳзада
Гумбурлаб қўяди момақалдириқ.

Омадлар тилайди тунга куюниб,
Шу юртнинг хар битта гиёх, тошлари.
Бир буюк ташрифга ишонмай ҳануз,
Кекса чинорларнинг эгик бошлари.

Бойўғли хотиржам кутар ўлжасин,
Биларки, бу тўлғоқ узоқ чўзилар.
Ўтлуг ҳароратдан эриб адодир
Туннинг қўз ёшлари — ҳадсиз юлдузлар.

Барибир тоғларнинг башорат сўзи
Тилидан тушмайди сира сабонинг:
«Тонг албат туғилар, доялик қилса
Сайроқ тўргайлари Қашқадарёнинг!»

1990



ЧОРЛОВ

Юрагим соғинчдан уваланди-ку,
Қайдасан, күнглиминг эй нозли қизи.
Тун. Сукунат.
Димофимда сармаст шамоллар
Олиб келган атиргул иси.
Келгин...
(Тунги илиқ ҳаво түлкени
Илтижомни қалбингта құйсина).
Келгин!
Менинг ташна күзларим бу дам
Дийдорингта бир бора түйсин.
Билмайсан,
Не күйга солди соғинчинг,
Холимни биргина юлдузлар күрар.
Мен каби әзилиб осмон қаърида
Күз ёшым мисоли мүлтираб турар.
Үтінаман, ёлғизим, бағрим,
Соғинч гүлаҳида қолдирма мени.
Соғинч ўтидан-да оташрок лабим
Англагин, шу дамда истайди нени?..
Баҳорни соғиниб мунғайған дарахт
Үйларин онаси бўлган бу олам —
(Ўрмонга чарсиллаб ўт тушган каби)
Келсанг,
Кувончимдан ёришгай бирдан.
Дийдам косасига бегона уйқу
Халоват излабон ахир чарчади.
Келмасанг, бу тонг ҳам мени деб осмон
Зарбоф чопонидан яна кечади...

НАУГЖАМ ОРЗУД ЖИЛО

Хаёт ташвишларин ирфитиб күйиб,
Симиргим келади түйиб ва түйиб
Ёмғирдан кейинги тоза ҳавони.

Симиргим келади ютоқиб, шошиб,
То унинг софлиги ўпкамдан тошиб,
Сўнгра вужудимга сингсин қон каби.

1985



1985

ОШИҚ ДҮСТ МАКТУБИ

Ишондим, севилмай яшамоқ оғир,
Кул бўлиб ишқида, ошна, бир қизни.
Келсанг-ку, ўзинг ҳам кўрасан, ҳозир
Мен — сухбат мавзуси қишлоғимизнинг.

Гуллар очиларми боғда анвойи,
Ёки тун тўшарми қоп-қора чойшаб —
Барига бефарқман, тунд ва ёввойи,
Ёлғизлик истайман Мажнунга ўхшаб.

Мажнунлар замони эмас, биламан,
Кўп нарса ўзгарган ушбу асрда.
Лек нетай, ўйларим эгаси бўлган
Бир Хаёл яшаса кўксим қасрида?

Кезаман туну кун кимсасиз даштни
Зилдай рад этилган ишқни кўтариб.
Қай тошга урмоқни билмайман бошни,
Одам йўқ мендан-да ночорроқ, фарид.

Ҳеч ким тушунмайди, ҳолимни, афсус,
Лоақал сен тушун, қилмагин эрмак.
Ахир, муҳаббатнинг кўзи кўр ҳануз,
Ахир, бўйсунмайди буйруқка юрак!

Барibir тақдирдан ёзғирмам зинхор,
Шу севгим руҳимни қўллагай ҳар дам.
Фақат, бил, паст эмас, юксакман кўп бор
Юракда ишқи йўқ баҳтиёрлардан.

1990

ТУШ

Бир туш кўрдим,
йўқ унга таъриф:
бирам рангин,
бирам нурафшон,
Бу тушга сен
айладинг ташриф —
киприги ўқ,
нишони-чи — жон!
Ташлаб сенга
кўзин қирини,
хижолатдан
офтоб соч юлди.
Сен деб, ёриб
замин қаърини,
турфа хил гул,
чечак очилди.

Ўнгимда-ку,
фироқ ила фам
рухимни кўп
этганди майиб.
Бокдинг шифо
нигоҳинг билан
табассумга
юзингни чайиб...

Бир туш кўрдим,
йўқ унга таъриф!

НЕКБИНЛИК

Кўксимда ястанган заҳролуд ҳажр,
Тун, кулма милёнлаб қўзларинг билан.
Умидим бор, ахир, зулфизарига
Бағримни тўлдиргай ҳали илоҳам.

Осмондай юксалиб, ҳали бу бағрим
Қакнуслар рақсига қонар кун яқин.
Бадқовоқ осмондан воз кечиб охир,
Юлдузлар шодасин келтирап чақин.

Бир тонгки, борлиғи сутга чайилган
Ва унинг ишқида кўзи ёш майса –
Неки бор оламда меники бўлар,
Илоҳам зулфини кўксимда ёйса!..

Кўксимда ястанган заҳролуд ҳажр...

Беданас, пру ғулжарро тенаккоти

Зилдай халтасиганинг түзакчи

Коғи дарё, урмончиликчаликни вали

Сабакида же таъсисати ширини

Аўх наимроқ

Хизматни узас, дарём бўйини, жой

Дарёндан сарбозларни ўзини

Лаки, и ўзини ташланадиганни

Сабакида же таъсисати ширини

Марказида же таъсисати ширини

Дарёндан сарбозларни ўзини

Лаки, и ўзини ташланадиганни

Сабакида же таъсисати ширини

ЭХТИЁТКОР ОДАМ СҮЗЛАРИ

Юракни ҳовучлаб яшамоқ оғир

Бу нотекис, күп ўнкир йўлда

Қоқилиб кетмайин деган ўй билан.

Кимга этак, кимга енг бўлиб,

Бирни ака, бирни ука деб,

Топиб олдим сип-силлик йўлни.

Юрак эса ҳануз ҳовучда —

Сирпаниб йиқилмоқ хавфи қўймайди!



Тараддуд сезилар баҳрул очунда,
Нилий күк этаги гоҳо турланар.
Мунгайған, яланғоч боғнинг сатхида
Топталган япроқлар фарёди ёнар.

Оғочлар қўйлагин юлиб тўймаган
Шамол кўзларида ҳадик, талваса.
Яшилтўн арчага зор этган уни,
Аёз қаҳри билан боғлиқ васваса.

Майса унугтанча бешафқат ўрок
Берган жароҳату дарднинг барини,
Номаълум бир фурсат қўшиб ўзига
Кўмар оҳорланган умидларини.

Бўш ин сувратида мотамсаролик,
Лайлак қанотлари айрилик туғмиш.
Сабрдан тўралган минора англар
Ҳадемай борлиққа ҳоким бўлар қиши.

Лек кўнгил қизиқмас оламда не ҳол,
Тўлдириб ҳар ённи чорлов хатига:
Бахор ташрифини кутади интиқ,
Юракнинг дахлсиз салтанатига.

* * *

Кувонтирмас қайси отани
Үз ўғлининг жиндек ютуғи.
Инсондаги жами хислатдан
Шу энг олий, шу энг улуғи.

Ушалгандек умрлик армон,
Ота кўнгли шодликдан жўшар.
Шу дамда у шеъри туфайли
Машхур бўлган шоирга ўхшар.

Соки баланджар сардиган таштаки
Тарбияни чаржизи тоғирцеда ўтишади
Дин ташкини сендиши менинди иштабони
Бозиши ўтишади мажбутийати майдониди.

Хизбидар сокитирло, шамади иштабони
Дин ташкини сендиши мажбутийати майдониди



Бозиши ўтишади мажбутийати майдониди
Соки баланджар сардиган таштаки
Дин ташкини сендиши менинди иштабони
Бозиши ўтишади мажбутийати майдониди.

* * *

Бир фараҳли кунлар яратайлик, кел,
Яқин йўлатмасдан дилга қадарни.
Қарагин, еб тўймас бу учкур йиллар
Тановул қилмоқда хотираларни.

Бокира болалик кунларин ёди
Ҳазм бўлар экан йиллар қорнида,
Новдамиздан учган ҳар япроқ учун
Янги барг ёзайлик, афсус ўрнида.

Хотирот сатҳида бир из қолдирмай,
Лаҳзалар йўқликка кетмасин ўтиб —
Ҳар лаҳза мазмунин асалга қориб,
Умримиз лабига қўяйлик суртиб.

Кани кел, сен келсанг, вақтнинг зарбаси
Таҳдид сололмагай хотирга ҳечам.
Чирқиллаб йўлингга интизор бокар,
Умидим — ёлғизим, умидим — қушчам...

Бу худои яхр оғизи монжони сатҳи
Бозорга сиптиҳи ҳамд оғизи
Юрига саръатсан сатҳи... тига

ИЗХОР

Оддий боф эмас, йўқ, бу боғи Эрам,
Пойингда хазонмас, шерозий гилам.
Сукунат жимликмас — бир улкан ҳайрат,
Кечаги мен эмас, мен ҳам сен билан.

Осмонда қүёшмас, у тилла баркаш,
Сочмоқда бошингдан шода-шода дур.
Шохларда қимтинган, жамолинг кўриб,
Кўзлари қамашган сандувоч эрур.

Сочларинг ифорин туйиб энтикар
Тароват тарк этган қовжироқ гуллар.
Пойингга япроқдек бош ура олмай,
Тераклар армон-ла сокин шовуллар...

Юрагим сел бўлиб тошади масрур
Тасаввур оламин жилваларидан.
Зим-зиё кўнглимда офтобдек балқсан,
Сен юксак мўъжиза бари-баридан.

Бенаво ўтмагай дамларим энди
Сепкил юзларига термилиб туннинг.
Сен борки, боқийдир умримнинг тонги,
Эй, кузда юз очган баҳорим менинг.

УМР ПОЁНИДА МУҚАННАНИНГ ХАЁЛИДАН КЕЧГАНЛАРИ

Ў, элим,
Эркни боласидек суйган, элим-а,
Ишончинг қолмади наҳот ўзингта?
Ўтларда тобланган
Тиф каби кескир
Нигоҳлар кўрмоқни истаб эзилдим,
Куриган денгиздек бўм-бўш кўзингда.
Ишондим:
Пичирлаб яшамоқ жонингга тегиб,
Наъра тортажаксан очикчасига —
Ёришиб кетажак барчанинг онги
Озодлик сўзининг алангасида.
Орзу қиласердим.
Майсалар чинорга айланмагандек,
Орзум ушалмади — баҳтиңг кулмади.
Тафтига куёш ҳам дош бера билмас
Оловга юрагинг макон бўлмади.
Сабр ва бардошнинг патларин тишлаб,
Тақдирга тан берган одамлар, қайтинг,
Бу хўрлик бизларга мангу насиба
Эмасдир,
Оlamга баралла айтинг!
... Армон-ла ўтмоқни истамасман, йўқ,
Шу боис ўт қўйгум энди ўзимга* —
Вужудим оловдан лиbosлар кийиб,
Абадий
Акс этсин, элим, кўзингда.

1989

*Ривоятларга кўра Муқанна ўз-ўзига ўт қўйиб ҳалок бўлган.

Ҳаммаёқда атиргул иси,
Ҳар нарсадан излайман маъно.
Ҳаёлимдан кетмагай исминг,
Гулираъно.

Бир дард ўртар мени беомон,
Бу дардга ҳеч бормикин даво?
Чора истаб, чопдим ҳар томон,
Гулираъно.

Беролмасман тақдирга фириб —
Сенсиз баҳтим кулмагай асло.
Хузурингга келдим бош уриб,
Гулираъно.

Мен билмасман ишқнинг тилини,
Номинг қалбда яшнагайammo.
Хазон этма севгим гулини,
Гулираъно.

1989





* * *

Тонг кулади гўдакдай майин,
Қуёш нурин сочар беминнат.
Фараҳ ҳоким қаён боқмайин,
Юрагимда андуҳлар фақат.

Хар ён событ суур ҳамда шан,
Бироқ улар... менга тотмайди.
Ахир, нетай, ёнимда йўқсан,
Юрагимнинг тонги отмайди.



Сабаки сабаки

Инди оларни тушади. Муҳаммад Баланди борада сабаки
бабади.

ВАТАН СУРАТИ

Ватан суратини чизмоқ оғирдир,
аммо шу суратни чизмоқ истайман,
унга мос рангларни тинмай излайман,
қайда бүёк бўлса, кўраман бир-бир.

Лек қандай чизаман кўнглим тўлмаса,
бу қадим маъвонинг буюклигини,
энг эзгу сўз каби суюклигини
ифода этувчи бўёк бўлмаса.

О, юртим, ҳуснингга боқиб тўймайман,
бундайин гўзал ранг қайда бор ахир —
камалакнинг етти тусига татир.

Чизаман, фарзандман, чизмай қўймайман,
чизмай десам сўнгра қийнар армоним,
балки бўёк бўлар юрагим қони!..

1984



НТАЙСА НАТАВ

Мен сендан олислаб кетганим кундан,
Тақдир сийламоқдан ўзини тииди.
Йиллардек судралиб ўтди лаҳзалар,
Кўзларим соғинчдан лиbosлар кийди.

Сахродек қуп-қуруқ қалбимга тинмай
Ҳасрат уругини қадар сукунат.
Чорасиз ўйларнинг қонини сўриб
Сўнг аччиқ мевалар тугади ҳасрат.

Бир марғуб масканни тентираф излар,
Юракни тарқ этган бечора шодлик.
Фироқнинг наздида вужудим гўлаҳ —
Бағримга ўт қалар сира беҳадик.
Бу синиқ руҳимни тикламоқ бўлиб,
Фариштам, такрорлаб азиз номингни,
Чиллада баҳорга илҳақ қуш каби
Кўмсайман руҳафзо табассумингни.

АМАРДЫКИЛАН РУХ

Сен кетдинг,
Булбулнинг кўзидек ёғду топмадим,
Шабистон кўнглимни ёритмоқ истаб.

Сен кетдинг,
Ютиб юбормади мени ёлғизлик —
Кўкрагим ичига беркиниб олди.

Сен кетдинг,
Қакроқ тилларини бигиздек санчиб,
Жонимни ичади сўнгги пушаймон.

Сен кетдинг,
Мукаррар ажалдан сувлари зилол
Тахайюл тубига чўкиб қутулдим:
(О қайтдинг, хайрият, хайрр...)



ХЕЧ НАРСА СҮРАМА

Хеч нарса сўрама, бу зиқна ҳаёт
Барибир кўлингга тутқазмас қопин.
Ҳамиша ёр бўлсин навқирон сабот,
Топинсанг ҳам ёлғиз сабрингга топин.

Оlamда баҳт бор, деб сени авраган
Ёлғоннинг жигарин еган қасида.
Хушёр бўл, зор этма улкан юракни
Ҳаётнинг урвоқдек садақасига!

Абадий қувонч ҳам, қайгу ҳам йўқдир,
Лоақал биримас, бирига тўйсанг.
Баҳт бўлса, яшнасанг яшил дараҳтдай,
Дард бўлса, зўр дўзах ўтида куйсанг!..

Хеч нарса сўрама, чидагин фақат,
Сабринг кирғокларин бузса-да тошқин.
Чидамоқ оғирми, олақол унда
Бир чимдим азобу бир ялам ишқни!..

* * *

Юзинг шуъласидан дилда ўт,
Бу ўтни ўчирмоқ — зёр гунох.
Ботинимда аланга рақси,
Юз ох, эй моҳ, сен эмас огоҳ.

Олмос қирралари жафонинг
Кўксимни поралар — ҳайдар қўш.
Конга тўлган жўяклар узра
Бир хуш, ё туш, сузсанг-чи, оққуш!

Сўнгсиз азоб ўлдирмас, аммо
Кўзларинг қиличи кўп ёмон:
Ногоҳ ҳужум бошлиса улар
Бу жон омон қолмоғи гумон.





Күёш ўтиб кетди ўз ётоғига.
Күшчаларнинг чукур-чуфури тинди.
Борлиқ ҳадсиз зулумот қучоғида
Товушу шарпага зор бўлар энди.

Бу вахм, зулматни ким қилар удда,
Кани у гўзаллик, тароват қани?..
Кўзимдан нигоҳлар сачрар бехуда,
Кечаги чиройдан тўйиб эмгани.

Барчаси бехуда. Кетдим сиқилиб,
Ўйларим сочилган. Ҳислар увада...
Бу маҳзун ҳолимга кулмоқми бўлиб
Тонг эса шошилмай тунни қувади.

Куршовдаги
довюрак жангчи
ўқдонида қолган
энг сўнгти ўқдек
менинг ҳаётимга кераксан,
Севги!

* * *

Кечиккан муҳаббат, кечиккан севги
Бахтмикан, кулфатми — билолганим йўқ.
Дилўртар бу ўйлар, бу ҳис, бу сезги
Гёё кул остида қолган лахча чўғ.

Гурлаган, бетизгин аланга кучин
Ҳис этса, чатнагай тофу тош, қоя.
Ишқинг оташида ёнмоқлик учун
Наҳотки, бир нигоҳ бўлса кифоя?

Қалбларда уйғонган ажиб бир туйғу —
Бамисли минг йиллар уммон қаърида
Нихон қолиб, сўнгра топилган инжу.

Ойнинг ўн бешими?.. Қолди нарида!
Бизларни не кутар, билмасман, ёху,
Ўн саккизга тўлган олам бағрида!





* * *

Бу муҳаббат гарчи кўҳнадир,
Туйгуларим лекин расида.
Мен учунмас у достон — дилгир,
Керак эмас ҳатто қасида.

Ҳақиқат шу: ошиб ўттиздан,
Муҳаббатнинг тушдим дастига.
Гинам ҳам йўқ нав-ниҳол қиздан,
Кўп улуғ дард севмоқ аслида.

Қўрқинч эмас жавобсиз севги,
Ишқقا ёрлик ўзи кифоя,
Қалбда жўшиб бир денгиз — севги.

Наҳот ақл бўлолмас доя,
Бу титраган вужудми, соя?..
О юрагим, мен нима девдим!?.



Ҳали тонг отмади, йўқ, бирор марта,
Аммо минглаб туннинг сочи оқарди.
Бугун кеча учун эртадир, эрта!..
Умидвор ишқ шивирлаб бақири.

Ҳисларни тиймокқа етмайди кучим —
Дарё бўлолмаган кўзларим намдир.
Мухаббат қасрига шоҳ бўлмоқ учун,
Бу фусса, бу ситам, бу алам камдир.

Ох, барин биламан — шу қисмат насиб,
Тақдири азалдан бўлмасман хафа,
Гарчи ўзга бахтга эдим муносиб.

Қайда, ахир, оёқ еткунчалик йўл,
Юкуниб боргандা энг сўнгти дафъа
Бошимни силашга арзигулик кўл?!

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий
Сурʼати маданий
Сурʼати маданий
Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий

Сурʼати маданий




* * *

Хувиллаган юрак, хувиллаган уй...
Күмсоат құмларин әламас, ажаб!
Олис хаёлларга банди бўлган ўй
Кечмиш лаҳзаларни тураг ҳижжалаб.

Ёмғир, райхон иси... Ёниш, ўртаниш —
Чуваланар ўтган кунлар тасмаси.
Инжиган севгини англаш, ўрганиш...
Наҳот ортда қолмиш энди ҳаммаси?!

Ўзим хато қылдим. Қисмат — беомон.
Баҳорга етибдур қай вакт, қай замон
Хас-хазон тўшалган боғлар оша ким?!

Увол ишқимизнинг тумори — ўтмиш,
Гилос дудокларнинг хумори — ўтмиш,
Менинг эса бугун келар яшагим!..



КҮРОЛМАСЛАР

Юрак ютиб ахволингни сўролмаслар,
На дўстликка, на ёвликка яролмаслар,
Ич-ичидан куйиб-куйиб тутар фақат,
Кўролмаслар!

Сиртдан сипо, ботинида ботмон кўмир,
Юрагида хасад курти фимир-фимир,
Инсофлиман, деб чиранар бутун умр,
Кўролмаслар!

Ютуфингни кўрса тамом — қийналади,
Лекин доим атрофингда айланади,
Гурунгларда сен ҳақингда чайналади,
Кўролмаслар!

Сўз берилса, ялтоқланиб гапиради,
Нафс пайида кўпиради, гупуради,
Тузинг ичиб, тузлифингга тупуради,
Кўролмаслар!

Бузоқ ҳақда ваъзин тинглаб, келар ғашинг—
Сут ичмоқдан қайтаради ҳар дам шаштинг.
Ўзи пинҳон паккос урар бузоқ гўштин,
Кўролмаслар!

Тўқ кўринсанг, очлигидан нолинади,
Тагин яланроҷлигидан нолинади,
Бир оз меров, гожлигидан нолинади,
Кўролмаслар!

Дўлайтириб кўзларининг пахтасини,
Маҳтал яшар имосига отасининг...
Кутар ҳатто падарининг хатосини,
Кўролмаслар!

Номукаммал яралгандир ҳаёт, дейди,
Мен пиёда, қайдан унга бу от, дейди.
Азал-охир ўз бошини ўзи ейди,
Кўролмаслар!

ҮТМАС ПИЧОҚ

Чарм қинда, сопи нақшли,
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.
Томошабоп, зап күришли,
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.

Ез иссиғи, қишиң қорида —
Осиқ турар уй түрида.
Жилоланур шам нурида,
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.

Агар сиртдан берсанг баҳо,
Хар жиҳатдан түкис, аъло.
Пичоқмисан пичоқ, аммо...
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.

Юмуш чиқса, шай турмаган,
Бирор марта чарх күрмаган,
Эр күлида юрт күрмаган,
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.

Бари алам ахир шунда:
Қайфуда йўқ илинж ундан.
Ярамайди яхши кунда,
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.

Қайди таъбир, нега йўяй?
Ёки кўлни силтаб қўяй —
Бор деб эмас, йўқ деб куяй,
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.

Бордир нақл — ёдда турсин:
«Ўлдирса ҳам мард ўлдирсин!».
Сенга ўхшаш одам курсин,
Үтмас пичоқ, үтмас пичоқ.



* * *

Яна ортга чекинди ёлғон,
Яна голиб келди ҳақиқат.
Лекин не-не дил бўлиб нолон,
Шу дамни деб қон ютди бехад.

Бу голиблик нашъу намоси
Қалб захмига бир малҳам каби.
Йўқдир унинг кибру ҳавоси,
Шукроналик эрур насаби.

Баҳс ва кураш тинмагай асло,
Сергаклик шарт ҳар лаҳза, ҳар он.
Огоҳлик бой берилган асно
Яна қайтиб келади ёлғон!

2008



ИМЗОСИЗ БҮХТОН БИТУВЧИГА

Эринмай санабсан етти пуштимни,
Демак бегонамас, таниш йүрфасан.
Татиб күрган каби бирда муштимни,
Бунча паналайсан, бунча қўрқасан?!

Дилозор пасткашсан, икки дунёнгвой —
Чунки хеч тухматдан ҳазар қилмайсан.
Онангни кўпчилик билар, ҳойнаҳой,
Отанг ким? Ўзинг ҳам балки билмайсан...

2009



Имзосиз бүхтон битувчига
Сардор Усмонов



* * *

Ёмғир ёғар эзгин ва эзгин,
Қайда уйку? Тун ҳам чўзилар.
Ёприлади ўйлар бетизгин,
Шода-шода хаёл узилар.


Ушалмаган армон ўртайди,
Увшади ногоҳ юрагим.
Орзуларим наҳот қартайди,
Бу дунёга борми керагим?..

Савол кескин бўлмаса бунча:
Армонрезги умр кузидан
Умидлар хеч тугарми фунча?

Бўлиш-бўлмиш тақдир измида,
Ечилган ҳар мушкул тугунча
Нисбат эрур фақат Ўзига!

Борадарларини куради
Борадарларини куради
Борадарларини куради
Борадарларини куради

Борадарларини куради
Борадарларини куради
Борадарларини куради
Борадарларини куради





* * *

Сен охиста ўтдинг ёнимдан,
Сенга томон нега бормадим?
Ўтдинг шундоқ жисму жонимдан –
Чулғаб мени туйғулар надим.

Хаёлингга бўлсам-да асир,
Юрак ютиб, юрак ёрмадим.
Қурмоқ учун ишқдан бир қаср,
Кўз ёш билан лойин қормадим.

На-да йиглаб, на-да куламан,
Умидим, орзумсан биламан,
Билолмайман фақат ўзимни...

Қанча йил, ой – сунбула, акраб,
Юрагимда пинҳона сақлаб,
Айтотмайман, эвоҳ, сўзимни!...



ТҮРТЛИКЛАР

Кўкламни ҳис этиб, майса ниш бўлди,
Ёз ўтди, куз ўтди, тағин қиши бўлди.
Ҳаётинг тонгига шомингни ўйла,
Дунёга келдингми, бўлар иш бўлди.

* * *

Мехр йўқ майироқ менинг меҳримдан,
Қаҳр йўқ қаттироқ менинг қаҳримдан.
Бу феъли ниҳоним ёдда тут, эй дўст,
Бир кун кечар бўлсанг ногоҳ баҳримдан.

* * *

Хаёлан умримга тўнлар бичарман,
Кўлимда тахир май, ночор ичарман.
Бу бедод фалакнинг иши кўп жумбоқ;
Манзилим ноаён, отни қичарман.

* * *

Кўз очиб тириклик тупроғин кўрдим,
Тупроқда ўтганлар урпроғин кўрдим.
Беш кунлик маконда шод ўлмадим, ох,
Вале дард-ҳасратнинг кўпроғин кўрдим.

* * *

Толеимга тақдир нечук қовоқ уйди,
Ўртаммоқдин неча ой, йил бағрим кўйди.
Сен деб қанча куйиб-ёнсам, гулим, ажаб,
Ҳижрон отлиқ бало мени шунча сўйди.

* * *

Любимаго юникутим спауд
Любимон инзори язи този чи
Любимон чи индерди кеён ревий
Любимон жи спахим и, камиди мах мад



ЧАСЫНДА

* * *

Қачон вафо қилган вафо топаркан?
 Қачон жафо қилган жафо топаркан?
 Оч-нахор ётган ит қопогон бўлса,
 Сўнгак ташлар бўлсанг, ҳайхот, қопаркан!

* * *

Оҳ, дунё бағритош, билмайсан, эй дил,
 Бошингда маломат тошлари чил-чил.
 Бу тошлар қайдин деб, қўрмоқчи бўлсанг,
 Манглайнингда қотган қонни сурма қил.

* * *

Манманлик дардига чалинган bemор
 Тузалиб кетмоғи ҳаргиз кўп душвор.
 Ул нокас худолик даъвосин қилиб,
 Шу дарду балога бўлган гирифтор.

* * *


Ҳаёт сўқмоғидир гоҳ баланд, нишаб,
 Бақамти келгандек сахар ила шаб.
 Нечун қайғу чексин ошуфта диллар,
 Кимдир яшар бўлса фийбатни кавшаб.

* * *

Бу ширин ёлғоннинг шакаридан қўрк,
 Хушомадгўйларнинг айтаридан қўрк.
 Забунлар ҳолига кулмоқдин сақлан,
 Чархи кажрафторнинг қайтаридан қўрк.

* * *

Бугунга масъулмиз, билсанг, асли биз,
 Бир эзгу ном ила қолсин исмимиз.
 Кеча-ку йўқ эди биздан бир нишон,
 Эрта ҳам бўлмайди шаксиз жисмимиз.





* * *

Келсак — ярашади муҳаббат учун,
Кулсак — ярашади муҳаббат учун.
Ишқ дебон сарғариб, лахта қон ютиб,
Ўлсак — ярашади муҳаббат учун.

* * *

Шукр қил, нолима — бири камликдан,
Асрасин, зар дебон кўзи намлиқдан.
Ўз қадрин англаган ҳар банда учун
Улуғроқ баҳт йўқдир хотиржамлиқдан!

* * *

Ўнглагувчи ўзинг кўрган тушимни,
Тизгувчи бир ипга ёз-у қишимни.
Оллоҳим, не бўлса, ўзингдан кўрай,
Бандага тушгулик қилма ишимни.

* * *

Шакар у, заҳар у — сўздан огоҳ бўл,
Мехр у, қаҳр у — кўздан огоҳ бўл.
Гоҳ мамнун, гоҳ маҳзун, лек замин томон
Чўкиб бораётган Ўздан огоҳ бўл.

* * *

Фам чекма, гарчи зар кўпроқ топмадинг,
Ё мансаб, эътибор хўброқ топмадинг.
Дод десанг арзигай ўтар дунёда,
Бир муnis, меҳрибон ҳамроҳ топмадинг.



* * *

Менинг хаёлимни банд этган зебо,
Сен каби гүзүлни күрганми дунё?
Мен сени юлдузга қиёс этолмам,
Юлдузлар саноқсиз, сен эса танҳо.

* * *

Обод ҳуснинг ила кўп лол этасан,
Серишва нигоҳ-ла беҳол этасан.
Бу хаста қўнглимга раҳм қилмасанг,
Бир кун ёш умримни увол этасан.

* * *

Айта қол, севмоқлик, азизам, надир?
Күксимда бир оғир дард-алам надир?
Биргина нигоҳ деб жондан кечмаклик,
Чин севги бўлурми ёки кам, надир?



ШУУРДАГИ ЧАҚИНЛАР

Ёлғизлик — энг буюк устоз. Ҳеч қим босиб ўтилган йўл, ортдаги умр ҳақида ёлғизликчалик тўғри сабоқ беролмайди одамга.

* * *

Дунё бамисоли бир бозор. Биров киради, биров чиқади. Мухими: қуруқ кириб, қуруқ чиқмасликда.

* * *

Қанча кам ухласанг, шунча кўп яшайсан.

* * *

Таржима асар бировнинг созида бошқа биров чалган куйга ўхшайди. Фақат унинг қай даражада муваффакиятли чиқиши кўп жиҳатдан кейинги созанданинг истеъод ва маҳоратига боғлиқ.

* * *

Ёвқурлик бобида бу хам бир дастур —

Аждодлар ўгитин зўри бўлади:

«Болангни йўлбарсим, шерим деб ўстир,

Улғайиб, ҳеч курса, бўри бўлади!»*

* * *

У алдовлардан шунчалик юрак олдириб қўйганки, сеҳрланган қурбақа улкан илон домига беихтиёр интилгани каби фиригарлар қўйган тузокқа тушгани тушган.

* * *

Ўгитим шул: даги бафимни тилмагин дердим,

Яхшини билмасга яхшилик қилмагин дердим.

Нединким кўп донолар бир вақт айтиб кетмишлар:

«Нокасга салом бердим, қирқ танга товон бердим!»

* Ривоятларга кўра, туркий қавмлар бўрини мұқаддас деб билиб, уни жуда эъзозлашган.



САЛОНДА МАДАЧИИ

Бу нусха анча-мунча назаркарда одамлар тоифасиданман деб, мақтаниб юради. Бўлса бордир. Чунки унинг бошига баҳт қуши сира қўнмаган бўлсаям, бирдамас-бирда «ўтириб» кетганлиги аниқ...

* * *

Ҳамма нарсаси бадастир одамнинг ҳаётида фавқулодда кувончли кунлар кам бўлади.

* * *

Мен бугун ёзган шеърим ҳақида сиз билан истаганча баҳслашибим, уни қайтадан ёзиб чиқишим мумкин. Лекин кечаги шеърим хусусида... Мени кечирасиз-у, сиз эртага ҳам айни дамдаги ҳақиқатимга тамомила событ қоламан деб қаттиқ ишонаяпсиз чамаси?

* * *

Бир марта сотган одам... Иккинчи марта ҳам сотади.

* * *

Яхши ном олмоқ илинжида ўзи ва яқинларига ноҳак жабр қилган одам адолатсизdir.

* * *

Қонунни дўст тутган ҳар инсон,
Ҳаётда қоқилмас ҳеч қачон.

* * *

Мақтанчоқлик кўчасига кирган кимса, у ким бўлишидан катъи назар, охир-оқибат худбинлик ботқоғига юзтубан кулайди.

* * *

Худбин кимсанинг очкўз ва беандишилигини, фақат шу бугунни деб, ёлғиз қорни учун талашиб-тортишиб яшашини қайсиdir маънода оқлаш ҳам мумкиндек... Чунки бу тоифа одамларнинг эртаси йўқ-да!



НОА ФИХРУДИН НОЖАКОВ

У кутишни ўлгудай ёмон кўради. Шунинг учунми, ҳар доим учрашув белгиланган жойга, албатта, кечикиб боради.

* * *

Сершубҳа одамдан иложи борича узоқроқ юрган маъқул. Бундайлар ҳадик ва қўрқув исканжасида охироқибат энг яқин кишиларини ҳам гумон дарёсига фарқ қиласидилар.

* * *

Сўзни сўздан фарқи бор, деган ибора айни пайтда шу сўзни айтувчиларнинг ўзига ҳам бирдек тегишилидир. Чунончи оддийгина тирикчиликни-да қўл учиди ўтказиб юрган нотавон кимсаннинг тўқис ҳаётни қоралаб айтган гаплари ҳеч қачон юракдан чиқмайди.

* * *

Югурик умр бу, бир дам сустлашма,
Илдам бўл, ҳар нега тўхтаб, қасдлашма.
Панадан тош отган нотавон, ахир,
Янчаман деб уни ҳаргиз пастлашма.

* * *

Тилни тийиб юрмоқ, унга ҳуда-беҳуда эрк беравермаслик хаёл ва тафаккурга қанот бағишлиб, оламшумул кашфиётларга замин яратади.

* * *

Аёнлари журъатсиз, қўёнюрак бўлган подшо салтанатида адолат устуворлиги ҳақидаги ҳар қандай гап қуруқ сафсатадан бошқа нарса эмас.

* * *

Бу инсон кўп ҳалол, оппоқ, ишонай,
Хокисор бамисли тупроқ, ишонай.
Лекин гумаштаси муттаҳам экан,
Ул таъриф-тавсифга қандоқ ишонай?!

БОЛАЖОНЛАР САХИФАСИ

СОҒЛОМ АВЛОД ҚҮШИФИ

Биз бахтиёр, соғ авлод —

Шири шакар, ҳам қандмиз.

Тинчлик билан күп обод

Хур Ватанга дилбандмиз.

Китоб десак, нур десак,

Мактаб томон йўл босиб —

Фарзанд бўлмоқ зўр истак

Аждодларга муносиб.

Истиқболда порлайди,

Амир Темур даҳоси.

Жасоратга чорлайди,

Мангуберди нидоси.

Боболарнинг орзуси

Бизга жуда яқиндир.

Чунки эркнинг зиёси

Фикримизда чақиндир.

Тутсак илм-фан туғин,

Шаксиз буюқ эртамиш.

Она юртнинг довруғин

Дунёларга элтамиш!



ҚУВНОҚ КУН

Келса биринчи апрель,
Севинчларга тұлар дил.
Жам бўлиб барча ўрток,
Ҳазилдан қилиб «тўқмоқ» —
Камчиликдан айтамиз,
Кулиб айтмай... қайтамиз!
Ким «иккичи», «дангаса»,
Изза бўлади роса.
«Ёлғончи», «чакма-чақар»,
Айтинг-чи, кимга ёқар?
Кимки дарсга кеч қолар,
«Тошбақа» деб ном олар.
Бирор андак кеккайса,
Бурунчаси тиккайса,
Қолдириб уни якка,
Килажакмиз калака.
Кунт қилиб ҳар биттамиз,
Ҳазил шеърлар битамиз.
Кўчиради кам-кўстсиз,
«Кўчирмачи» дўстимиз.
Қилмайди ҳеч ким араз,
Бу кулгилар бегараз.
Шу кун дилни очамиз,
Иллатлардан қочамиз.
Ҳамма дейди шод, мамнун:
— Хуш келибсан, кувноқ кун!

ФАЛАТИ МУСОБАҚА

Хўроз соҳил олдида,
Фозни кўриб қолди-да:
«Хе, мақтанчоқ фоз, — деди,
Бор ҳунаринг оз, деди.
Чақир барча-барчани,
Ҳам қарғавой-фалчани.
Сен ҳақингда у жуда,
Лофт урибди бехуда.
Фоз ҳаммадан зўр, дебди,
Билмаганлар кўр, дебди.
Энди ўзинг шу фурсат,
Зўрлигингни бир кўрсат,
Куч синашгин мен билан.
Мақтансасин сен билан
Бундан буён бирор қуш.
Қани бўл, майдонга туш!»
Чорлаб дўсту ёрларни,
Шу атрофда борларни
Ким эпчил-у ким чақкон —
Синар бўпти икковлон.
Фоз ишлатиб ақлни,
Эслабди бир нақлни:
Бир қесган етти ўлчаб,
Голиб бўлса — не ажаб!?
«Қуруқликда хўрозга,
Ўзи анча дарозга
Етиб бўлмас, шубҳасиз,
Бироқ унинг бир ожиз,
Бир оз нозик жойи бор.
Гарчи рақиб кўп номдор,
Лек сузишни билмайди», —
Дебон фоз сал жилмайди.
Мусобақа бошланиб,
Хўроз олдга ташланиб,

Чопар экан күп шодон,

Фоз бурилди сой томон.

Ана, у сувга етди,

Зумда илгарлаб кетди.

Фозни қилолмай таъкиб,

Хўрот қолди тутақиб.

Ер тирнаб «ку-ку»лади:

— Фоз нимага қулади?

Ўрганволай сузишни,

Кўрсатаман ўзишни!..



ҮГИТ

Кексалар дер: «Бўлгин эҳтиёт,
Синалмаган бўлса агар от!»
Ҳайвонотнинг барига албат —
Тегишилидир, билсанг, бу ҳикмат.
Кўринса ҳам улар беозор,
Хушёрликни йўқотмоқ бекор.
Ҳаёт шундай: дуч килса тақдир,
Ит айниқса хатарлироқдир.
Чиқиб қолса йўлда баногоҳ,
Қочма сира, юргин секинроқ.
Ўйламаки, фақат хуради,
Ит қочганни ёмон кўради.



Гарефидан оғизи
«Ҳаётнида кўраш
Газ оғиз дағ-тоғ
Габарини мубориси
Дағ-тоғни бузга сиза,
Бироғи ишни жоби тизи
Сарора рашеб ёзигандир
Сизни сизни бе-зайди
Дебоби оғизни ўзимади
Маънави ташни ташни
Сизни оғизи ташни ташни

КИМ АЙБДОР?

Она жаҳл қиласи:
«Ҳеч кирмадинг сўзимга.
Оғриб қолса томоғинг,
Ҳамма айб ўзингда».

Бир чеккада қимтиниб,
Елка қисиб Голибшер:
«Музқаймоқ совуқ бўлса,
менда нима айб», дер.

Ноҳиянгизга сакрадиб,
Гендикинга башин тоном.
Сиз тақдиматиб айтниб
Фору зарафшонга кос

Шундай ахлати барои сиз -
Сизга хавза да иштабиб да



Узомсанда дарсан.

Баландири мурзабиди
Фикр салса олганни.
Негиб или ортизан
Бўлди биага етти ет

Ласиб сизат дублиникни
Шўлдан рахна юнсанган
Үстидро кешиф этини ённи,
Ён спадиш боштани ав

ДҮҚ ҚИЛДИ

Табиатда энг зёри
Момақалдироқ әкан.
Гумбурлатса осмонни
Хамма қалтироқ әкан.

Бизлар тоқقا отланган
Якшанба хам «дүқ» қилди.
Күп орзиқиб кутилган
Дам олишни йўқ қилди.



МАЙМУННИНГ ҲИКОЯСИ

Чангалзорда бир замон,
Авжи тириклик фасли.
Бизларга эш, биродар
Бўлган одамзод насли.

Ён қўшни-ю жон қўшни —
Форларда яшаганмиз.
Неки топсак, қизғанмай
Ўртада ошаганмиз.

Шоҳдан-шоҳга сакрашиб,
Терғанмиз банан, кокос.
Сўнг тақсимлаб олғанмиз,
Жону жигарларга хос.

Шундай аҳил эдик биз —
Бирғалиқда қилиб ов.
Йўлолмаган биз томон
Хатто қонхўр йиরтқич ёв.

Беминнат ёпингич деб,
Мўйимизни асрардик.
Ақлнинг балосидан
Ўйимизни асрардик.

Билмадим не хаёлда
Фикр қилди одамзод —
Кетиб илм ортидан
Бўлди бизга етти ёт!

Асли азал дўстликка
Шундан рахна ташланган.
Устара кашф этилгач,
Бегоналик бошланган.

ТУЛКИНИНГ ҲИҚОЯСИ

Үрмон хукми кўп бешафқат,
Омад кулар зўрга фақат.
Заиф бўлса қайси ҳайвон,
Пусиб яшар у нотавон.
Бирда бўри турткилайди,
Бирда қоплон нақ талайди.
Бизларга ҳам ушбу қисмат —
Бегонамас, берсам нисбат.
Излаб-излаб мен бечора,
Топдим охир шундай чора.
Совфа-салом қилиб бордим,
Йўлбарсойга кўнгил ёрдим:
«Суянч топган ҳамма, — дедим,
Бўлинг менга амма, дедим.
Ҳаётимни қайта қурай,
Жиян бўлиб даврон сурай.
Хизматни-ку қотираман,
Товуқ тутиб келтираман.
Олий зотсиз, олий мақом,
Бирга юрмок — фахр мудом...»
Мақтов сўзни хўп дўндиридим,
Йўлбарсойни чин кўндиридим.
Ҳой мудроқлар, уйғонганлар,
Ютуғимдан қувонганлар,
Ҳасад эмас, қилинг ҳавас,
Почча бўлди менга йўлбарс!

ХИМОЯ

Болаларни халқаро
Химоя қилиш куни.
Ота-онам ўзаро
Қилди химоя мени.

Аввал байрам баҳона
Томошага чиқдик биз.
Томошамас озгина
Машмашага чиқдик биз.

Бу не ҳолат (ух шўрим),
Бўлса ҳамки ҳаво дим,
Кийим кийдим зап пўрим,
Рўдапога айландим.

Онам деди: «Гапим шу,
Ёпингични иласан!
Ҳозирча ёз, қишида-ку,
Майли, ўзинг биласан».

Отам деди: «Ҳайвонот
Богини бориб кўрсак».
Онам дер: «Чарчар, ҳайҳот,
Болани асраш керак».

Сўнгра деди: «Аргимчоқ
Уча қолсин дадаси...»
Отам деди: «Ўйлаб боқ,
Айланмасин калласи».

«Бир яйрасин чўмилиб», —
Отам деди ниҳоят.
«Шамоллаб қолмасин» деб
Онам қилди химоя.

Кейин менга зарқоғоз
Музқаймоқ олиб берди.
Отам қилиб кўксин фоз:
«Касал қиласан» дерди...

«У яхшимас, бу ёмон...»
Онам гирдикапалак.

Етмасин деб бир зиён,
Отам тағин жон ҳалак.

Қилиб мени кўп зада,
Айтишди ади-бади.
Хуллас икки ўртада
Байрам ҳеч татимади.

Мехр гарчи кўп ширин,
Меъёр бўлса... кифоя.
Излар бўлдим ноўрин
Химоядан ҳимоя!



ЯЛҚОВ МУШУК

Ялқов мушук,
Анқов мушук,
Хур-хур қилиб,
Хузур қилиб
Ётаверар.
Үтаверар
Сичқон у ён,
Кейин бу ён,
Ушламайди —
Хушламайди
Меҳнатни ҳеч.
Эртаю кеч
Хур-хур қилар,
Хузур қилар.
Берсанг овқат
Ейди фақат.
Уни бундок
Текинтомок
Қилган ўзим —
Түғри сўзим.
Мушукча ёш,
Бир оз бебош
Вақти эди.
Тутиб ерди
Ўзи сичқон.
Чопиб ҳар ён,
Ўйнар эди,
Кувнар эди.
Шунда алқаб,
Силаб-сийпаб,
Эркалатдим,
Мой ялатдим.
Бўлиб кўп хуш,
Бердим сут-гўшт.
Хуллас калом,
Сархил таом,

Еб ўрганди.
Кўринг энди:
Берсанг еяр,
Эснаб кўяр.
Ўйнамайди,
Қувнамайди.
Менга боқмас,
Ортиқ ёқмас,
Ялқов мушук,
Анқов мушук!..



ЖАСУР ҚҰЗИЧОҚ

Барра пўстин қўзичоқ,
Кўзлари мисли мунчоқ.
Эрта тонгдан дик туриб,
Кир-адирда югуриб,
Ўйнаб-қувнаб тинмайди,
Чарчоқ нима билмайди.
Она қўй қўп хавотир:
«Узоқ кетма, болам, дер,
Шу атрофда бўри бор.
Емиш излаб у ғаддор
Жонингга қасд қилмасин,
Жигар-бағрим тилмасин.
Бу ёвуздан куйганман,
Йўқотишдан тўйганман...»
Тинглаб она сўзларин,
Юракдаги бўзларин.
Қасос ёниб кўксиди,
Кўзичноқ дер: «Ўксима!
Она, турма мунғайиб,
Эрта ўсиб-улғайиб,
Катта қўчкор бўламан,
Беҳад кучга тўламан.
Шохим бўлар бурама,
У ёғини сўрама.
Кўзимда чақнار олов,
Титраб-қақшар барча ёв,
Дош беролмай зарбимга,
Лол қолади ҳарбимга.
Сўзим турсин ёдингда,
Ўзим етиб додингга —
Ўша қонхўр бўрини
Куритаман шўрини!»

БЕТАМИЗ КУРКА

Ховлимизда курка бор,
Лекин феъли жуда тор.
Юргандек гүё мудраб,
Қанотини зил судраб,
Бақбақаси осилиб,
Бурни сабзидек сўлиб,
Топган каби зўр айб,
Доим турар хурпайиб.
Парранданинг думбули,
Тинмайди «фули-фули».
Жонга теккан овози,
Ҳамма ундан норози.
Кизил рангни хушламас,
Ногоҳ кўзи тушса, бас:
Хоҳ нонушта, туш пайти,
Дағдағани бошлайди.
Бир пиёла чойни ҳам,
Ичиб бўлмас хотиржам.
Бўлган эди бир сабоқ
Тушунмабди у мутлақ.
Эҳтиёт шарт дадамдан,
Жаҳли чиқса дафъатан
Раҳм этмасдан бир оз,
Эрта қичкирган хўроз
Кунин солар бошига,
Боқмай кўзин ёшига.
Патин юлар битталаб,
Сўнг этини нимталаб,
Шартта қозонга босар,
Ёки қайнатма осар...
Шундоқ тугар қисқаси,
Бетамизнинг қиссаси.

ТОШБАҚАНИНГ ҲАСРАТИ

Истаганда кийволиб, иккизинчи ўйында
Истаганда ечолсам, жетив
Хўп бебаҳо, дер эдим, шаша гўзларни
Этнимдаги тошкосам.

Ёмғир, дўлдан асрайди,
Писанд эмас тош, тикан.
Лекин баъзи пайтларда
Зиёни ҳам бор экан...

Бирор ёқса отлансан, Манзил унмайди сира.
Бугунгидек ҳолат ҳам
Килар қўнглимни хира:
Кўкка бокиб ётибман,
Нажот кутиб лол, фариб.
Чунки битта шумтака
Кўйган мени тўнкариб.



МУНДАРИЖА

Шеърий теранлик сари. Эркин Аъзам	3
Ватан	4
Шаҳрисабз қўшиғи	7
«Баргларида шабнамни тутиб...»	8
«Энди ортиқ иномоқ қийин...»	9
Бахтсиз ой ҳақида қўшиқ	10
«Тақдирি азалдан қочиб...»	11
Кекса дараҳт ҳақида баллада	12
«Мўъжиза кутмасман...»	13
«Умр ўтса фафлатни кеча...»	14
«Бардошим тугади...»	15
«Тун қариди...»	16
Ўтинч	17
«Қуёш кўкка қадалган ...»	18
Сонет 1	19
«Сиз менга кераксиз ...»	20
Сабоқ	22
«Майсани майсадек ...»	23
Кўқ гумбаз	24
«Бағрингда беш қунлик ...»	25
Ўзбекистоннинг илк жаҳон чемпионига	26
«Дунё, қўйнинг тўла ...»	27
Янги йил оқшомида	28
Кўнгил манзаралари	29
«Балки дунёдаги жамики ...»	31
Бир кун	32
«Кўм-кўк майсалардан...»	33
Армон	34
«Кўрқма, бу хавф ...»	35
«Бир сўз бор ...»	36
Илтижо	37
«Бошингда не хаёл?...»	38
«Тортар хаёлимни ...»	39
Хиёнат	40
«Осмоннинг мулкида ...»	41
Халқ оҳангига	42
«Рангин болаликка ...»	43
Мактуб	44
«О, буюк муҳаббат ...»	45
«Кон сачради...»	46

«Йигирма бир йилки...»	47
Сонет 2	48
Фахр	49
«Илоҳи, чўмаман ...»	50
Тазарру	51
«Минг битта хавотир ...»	52
«Биламан, сен мендан ...»	53
«Жуда тез ишондинг ...»	54
«Сукунат кўксисда ...»	55
Чорлов	56
Орзу	57
Ошиқ дўст мактуби	58
Туш	59
Некбинлик	60
Эҳтиёткор одам сўзлари	61
«Тараддуд сезилар ...»	62
«Кувонтирмас қайси отани ...»	63
«Бир фараҳли кунлар ...»	64
Изҳор	65
Умр поёнида Муқаннанинг хаёлидан кечганлари	66
«Ҳаммаёқда атиргул ...»	67
«Ҳали тонг кулади гўдақдай ...»	68
Ватан сурати	69
«Мен сендан олислаб ...»	70
«Сен кетдинг»	71
Ҳеч нарса сўрама	72
«Юзинг шуъласидан ...»	73
«Куёш ўтиб кетди ...»	74
«Куршовдаги...»	75
«Кечиккан муҳаббат ...»	75
«Бу муҳаббат гарчи ...»	76
«Ҳали тонг отгани йўқ ...»	77
«Хувиллаган юрак ...»	78
Кўролмаслар	79
Ўтмас пичоқ	80
«Яна ортга чекинди...»	81
Имзосиз бўхтон битувчига	82
«Ёмғир ёғар эзгин ва эзгин...»	83
«Сен оҳиста ўтдинг...»	84
Тўртликлар	85
Шуурдаги чақинлар	89

Болажонлар саҳифаси

Соғлом авлод кўшифи	92
Кувноқ кун	93

Фалати мусобақа	94
Үгит	96
Ким айбдор	97
Дүк қилди	98
Маймуннинг ҳикояси	99
Тулкининг ҳикояси	100
Химоя	101
Ялқов мушук	103
Жасур кўзичоқ	105
Бетамиз курка	106
Тошбақанинг ҳасрати	107

SIROJIDDIN RAUF

SIZ MENGA KERAKSIZ

S h e ' r l a r



- Siz menga keraksiz
O'lim yuridim, qizim
Gey ts'e sijla su-punkar minaldorin
ganimet qizim uqib od nizomim uqib od
uda tash-tilafatda kamyotz bishara, qizim ne, qizim
mene shiristi nozni, masl shiristi in boji sezayot usbi'oz
Tash, yaralidig' uqib qizim uqib
Bukilgen qadillagi fidayin - tash, - uftimodovua
MAX'A-nishdi! Menlari uqib ne, ne?

SHE'RIY TERANLIK SARI

She'r mehnati, shoirlit dardi bir odamga ko'plik qiladigan hodisa. Boz ustiga, bugungi kunda shoirni she'riy kayfiyatdan chalq'itadigan, goho yo'lidan ham chiqarib yuboradigan mashg'ulotlar ko'payib qolgan. Bir chekkada miskinlik gashtini surib, qalbiga qulq solib o'tiradigan Umar Hayyomni topish qiyin hozir. Yaxshigina she'riy mujdalar bilan ko'zga tashlana boshlagan yosh ijodkor shoirlit ko'nglini avaylay bilmasa, uni o'tkinchi havaslarga sovurish yo'liga kirsa, taqvimdan qofiya qidiradigan nazmbozga aylanib qolishi hech gap emas.

Yashirmayman, o'zini ham, yozganlarini ham qadrlaydigan shoir inim Sirojiddin Raufning ijodini ana shunday bir xavotir bilan kuzatib kelishim rost. To'g'rida, katta-kichik lavozimlarda xizmat qilib, bugun ham gazetachilikning mashaqqatli yukini yelkalab yurgan sertashvish odam «gul-u bulbul» dardiga vaqt topa oladimi? Topsa-da, qalamg'a ilganlari birovlarning lafzidan tushib qolgan siyqa tuyg'ular takrori bo'lib chiqmaydimi?

Yo'q, shoirlit ishq, ko'ngildagi dard teran, haqqoniy bo'lsa, har qanday vaziyatda ham zavol topmas, qaytaga qaynab, charxlanib, yangi-yangi qirralari bilan tovlanib chiqaverar ekan.

Shoir Sirojiddin Rauf bugun bizga manzur mana bunday misralar bityapti:

*«Hali tong otmadi, yo'q, biror marta,
Ammo minglab tunning sochi oqardi...»*

*«Bir kun menga tuhfa etadi seni
O'jar nigohlarim mixlangan eshik...»*

Bu yog'iga xavotirlanmasak bo'ladi. Shoir she'rning tilini, so'zning jarangini topganga o'xshaydi. Endi shu yo'lidan toymas: ijodkor sifatida ham, inson sifatida ham allaqachon suyagi qotib ulgurgan.

Qo'lingizdag'i to'plam ana shu mulohazalarimizga guvohnomadir.

Erkin A'ZAM

VATAN

Bu zamin daryo-yu tog'lari bilan
Qachon bino bo'lgan? Bilmas bir banda.
U moziy shavkati, dog'lari bilan
Qiziqish uyg'otar kundan kun manda.

O'tmishning turfarang qabatlariga
O'ylarim bosh urib, qaqlaydi yodim:
Yer sharin mana shu sarhadlarida
Ilk bor tug' qadagan qaysi ajdodim?!

Aziz bo'lib qay kun juldur sahrolar,
Qay zamon muqaddas sanalgan tuproq?
Ne uchun qasd aylab kelsa dorolar
Ajalning ko'ziga tik boqqan Shiroq?

U qanday tuyg'udir, hayotdan a'lo,
Qalqon qilib har dam jon-u jismni,
G'animplar boshiga solguchi yag'mo,
Yurakdan o'chirib qo'rquv ismini?

«Birlashsak, bizniki bo'ladi ochun!»
Hayqirib, ot surib ham so'l-u o'ngga,
Yovga tashlanarkan bamisli lochin,
O'shal hisni tuygandir Alp Er To'nga.

«Budunim, Turonim!..» O, o'tli kalom,
Qay asr o'yilding bitiktoshlarga?
El bo'lib yurt tanish boshlangan zamon
Alp Tegin boshmidi qutlug' hasharda!?

Vatan, yaralding-u har bir soniya
Yuksalding, toptalding charx o'yinida.
Bukilgan qaddingni tiklayin deya,
Qon kechdi Mengburni Amu bo'yida.

Qonlar silqib oqdi, bag'ring dog'ladi
Mazlumlar ohi-yu qilich jarangi.
Ulug' savashlarga chorlab, bog'ladi
Sohibqiron Amir Temur yarangni.

Shu shonli kurashlar yoritdi yo'ling,
Tiyra kechmishingning kunduzi bo'lib.
Yetti iqlim aro dovrug' sololding,
Mirzo Ulug'bekning yulduzi bo'lib.

Tengingni topmadi dunyoni bo'ylab
Ne kabir zotlarning buyuk salafi.
O'tdi Navoiydek vasfingni kuylab,
Necha Xorazmiylar, necha Nasafiy.

Sen eding, shubhasiz, Sharqning gavhari —
She'riyat, ilm-u fan, bari bunda jam.
Tegrangni do'st-yorlar qurshagan sari
Ko'paydi badkirdor g'alamislar ham.

Johillar fosh etdi yo'g'-u boringni —
Eng yovuz g'animdir g'ofillik asti.
Tuprog'ingni toptab, talab zaringni
Bostirib keldi-ku qizil alvasti.

Kajraftor izmida qoldi hur o'lka,
Borliqni qopladi to'fon, qasirg'a.
O'lim vahshatini sochdi ko'r ko'lka
Erktalab Cho'lpion-u Usmon Nosirga.

Og'ir kishanlarning zangin ko'rgan el,
Ozodlik ko'yida bo'lgay adolar.
To'siqlar dosh bermas toshgan kabi sel —
Sharqirab oqqanda oqqan daryolar!..

Ko'ksida O'zlikni cho'g'dek asragan
Avlodga yuksalish har dam yarashar.
Bu ko'hna ma'voga nigoh qadagan
Tarix bitigidan boxabar bashar.

Oqillik, jo'mardlik omondir qonda,
Hayallab qolmagay nurli kelajak.
Meros huquq ila jumla jahonga
O'zbek o'z so'zini yana aytajak.

Asriy sinovlardan mardona o'tgan
Qaddingga suqlanib qarasam deyman.
Ajdodlar kiftida ulg'aygan, Vatan,
Farzandday koringga yarasam deyman!



SHAHRISABZ QO'SHIG'I

Olis kechmishingga guvohdir Hisor,
Shon-u shuhratingdan so'ylar har chinor,
Moziyni yoritdi «Avesto» takror,
Bitiklarda noming azal, shahri Kesh —
Unut bolmas noyob g'azal, shahri Kesh.

Ona degay seni qancha buyuklar,
El baxti deb yurak-bag'ri kuyuklar,
Dunyo borki, ular mudom suyuklar,
Ko'hna tarix eshidigan, shahri Kesh,
Sohibqiron beshidigan, shahri Kesh.

Derlar: bu dunyoning ne'mati senda,
Vatanning eng ulug' qismati senda,
Hazrati Bashirning hikmati senda,
Avliyolar qo'nim topgan, shahri Kesh,
Ezgu niyat unum topgan, shahri Kesh.

Uyg'onishning ayni obi-tobida,
O'tdi xalqlar bitta boshmoq g'amida,
Tafakkurga haykal bo'lgan obida —
Temur qurgan Oqsaroysan, shahri Kesh,
Go'zallikda toq saroysan, shahri Kesh.

Bo'ljadi el bir tan, har illat yengdi,
Ma'rifikat chekindi, jaholat yengdi,
«Dunyo manim» degan saltanat yengdi,
Farzandlaring bo'lib zor-zor, shahri Kesh,
Mustabiddan chekding ozor, shahri Kesh.

Nechog'lik mash'umdir g'anim nazari,
Talandi ona yurt siym-u gavhari,
Bu zulm domidan Ozodlik sari
Boshladi o'tyurak Sarbon, shahri Kesh,
Kuldi tole, keldi davron, shahri Kesh.

Endi ahillikda doston bo'lgaysan,
Ezgulik barq urgan bo'ston bo'lgaysan,
Jahon ichra buyuk jahon bo'lgaysan,
Istiqloldan baxti kulgan, shahri Kesh
Istiqboldan ko'ngli to'lgan, shahri Kesh.

2002



* * *

Barglarida shabnamni tutib,
Nafisgina chayqalgan gullar
Iforini o'g'irlab ketib,
Sahrolarda yitarkan yellar

Vaqt chaladi besas qo'ng'iroq.

Bosh olib ketolmas, tun yaqin,
Azob chekar quyosh hoynahoy.
U-ku tongda qaytadi tag'in,
Zaminda turgaymi, shu chiroy?!

Vaqt qo'ng'irog'in chalaveradi...

Go'zallik bo'lsa-da matlabi,
Qoniqolmay lahza umridan
Vido aytgan kapalak kabi
Yoshlikka ham fano xos ekan.

Sen qaydasan?..

Kuyadi dilim,
Vasling istab, bo'zlayman zor-zor,
Rayhondan-da muattar gulim,
Shabnamdan-da pokiza nigor!..

Nashon u tur fan, tur illat, engil,
Shaxmat qurindil, shaxmat qaynadi,
Afzal qurilas degan sultanan zengil,
Mu'minlik o'shetdilot sur'atidilok.

Nashon u tur fan, tur illat, engil,
Talandoi sur'atidilok, sur'atidilok,
Bu sur'atidilok, O'sodlik sur'atidilok,
Kulfa rosi, kekeli sur'atidilok, sur'atidilok.

QIRG'OO ASIG'AN YO KIRTEZAH

Endi ortiq inonmoq qiyin,
Qalbni unsiz faryod o'rtadi.
Sen borsan qaydadir... ne deyin,
Oh, g'arib ko'nglimning ertagi?
Endi ortiq inonmoq qiyin.

Qalbni unsiz faryod o'rtadi,
Topmay turib yo'qotmoq og'ir.
Orzularni armon butadi,
Shuni ravo ko'rdimi taqdir?!
Qalbni unsiz faryod o'rtadi.

Sen borsan qaydadir... ne deyin?
Hislar toshar bamisoli sel.
Sipqoraman tahayyul mayin,
Xayolimga hayallamay, kel!
Sen borsan qaydadir... ne deyin?

Oh, g'arib ko'nglimning ertagi,
Yoding yodin yodda tuturman.
Ko'rinsa-da umrim etagi,
Men baribir senga yeturman,
Oh, g'arib ko'nglimning ertagi...

BAXTSIZ OY HAQIDA QO'SHIQ

Zamining mo'ylari — qator teraklar
Ko'kka barmoqlarin o'qtalgan tunda,
Oy chachvon-bulutni yo'qotib qo'yib
Xijolat chekkancha qimtinar. Shunda!..

Xo'rlikdan titragan oppoq yuzini
Qaynoq ko'z yoshlari yuvib o'tadi.
(Chachvonning o'g'risi shamolni bir kun
Dog' tushgan bu yuzning xuni tutadi).

Bu holning guvohi bukri osmonning
Ko'ksida olovlar yona boshlaydi.
«O'ksinma, ko'zim» deb, oyning yoniga
Hovuchin to'ldirib yulduz tashlaydi.

Shul asno qaysi bir sayyora shodon,
Oftobga qasoskor xatlar bitadi:
«Endi davo izlab kuygan yuziga,
Suyganing to'lin Oy ozib ketadi!..»



Taqdiri azaldan qochib bo'lmagay,
 Yo'limda yastangan gulmi, qormikan?
 Jonim omon ekan, umid o'lmagay,
 Meni deb dunyoga kelgan bormikan?
 Yillar yelib o'tar, hamrohim sukut,
 Qahraton unutdir, ko'klamlar unut.
 Lek xayol egnida bir alvon barqt:
 Meni deb dunyoga kelgan bormikan?

Sang'idim dala-dasht, qarorim yo'qdir,
 Topmadim jindak gasht, qarorim yo'qdir,
 Ko'ngilda ilinj mo'l, barorim yo'qdir,
 Meni deb dunyoga kelgan bormikan?

Ortga ko'z tashladim men yillar osha,
 Shu zamin o'shadir, shu osmon o'sha.
 Kindik qonim tomgan, ey aziz go'sha,
 Meni deb dunyoga kelgan bormikan?

Bu o'tar jahondan maqsad ne deyin,
 Kuz fasli bir qadam, bahordan keyin.
 Hijronda bir visol bo'lmasa qiyin,
 Meni deb dunyoga kelgan bormikan?

Tunning kunduzi bor, kunduzning tuni,
 Quyosh otashdadir oy deb har kuni.
 Men ham yaralganman Uni deb, Uni!..
 Meni deb dunyoga kelgan bormikan?

2000

KEKSA DARAXT HAQIDA BALLADA

Tush ko'radi chilla, saraton
sinovlari qaqshatgan og'och
bir vaqt pushti gullarin istab
shoxlariga qo'ngan sanduvoch
yana qaytib kelgani haqda.

Tush ko'radi ko'p yil yashillik
nimaligin bilmagan bag'ri
kurtaklarga to'lib to'satdan
barg yozganin...
(unut bo'lib yillarning qahri!)

Tush ko'radi
ko'rganlaridan
ildiz-u taniga bir o't chirmashar.
Larzon mevasiga tumshuq urolmay
ko'zlarin oqizib o'tadi qushlar.

Tush ko'radi...
o'ngida esa
tinch qo'ymaydi berahm shamol
yopishadi o'xshab kanaga,
yopishar-u siltar o'ng-so'lga
tuproq purkab bujur tanaga.
Og'ir-og'ir tebranar daraxt,
bedarmon keksalik so'ndirar shaxtin,
faryodi g'ichirlab chiqadi tashga:
Yo'q, hali tamommas, bari tamommas...

Garchi inonsa-da ildizlariga
suyanch topolmaydi xotirdan boshqa!

* * *

Mo'jiza kutmasman ertadan
Zamin kabi yagona, axir,
Ibtidodan intihoga yo'l.

Ana, titrar daraxt uchida
La'nat o'qib achchiq qismatga
So'nggi yaproq — eng so'nggi nola.

Qayga shoshding, qayga fig'onim?..
Yana qandoq ta'birlar kutar
Suvlarga aytmagan tushimni...



TSASA DARA * * * QIDA BALLADA

Umr o'tsa g'aflatni kecha,
Kunlar bir-biriga o'xshaydi.
Boy berilgan imkon bu — Kecha
Va Bugundan ko'ngil to'lmaydi.

Sudraladi har bir daqqa,
Quyosh botib, tonglar otadi.
Tushuniksiz qadim aqida —
Hayot qalbga toshday botadi.

Nimadir kutasan daf'atan,
Ketolmaysan silkib etaging.
O'zing ham bilmaysan, avragan
Yolg'on va'dasimi Ertaning...



* * *

Bardoshim tugadi, tugamas bu yo'l,
Bu yo'lda sang'igan umidlar yetim.
Yurak bo'm-bo'sh, ko'zim yoshi ko'l,
Tog'day toqatimning toqiga yetdim,
Bardoshim tugadi, tugamas bu yo'l.

Bu yo'lda sang'igan umidlar yetim,
Meni sarson qilgan jilvagar sarob.
Yo'llar-ku ko'p edi sinashta, qadim,
Notanish so'qmoqni tanladim u tob,
Bu yo'lda sang'igan umidlar yetim.

Yurak bo'm-bo'sh, ko'zim yoshi ko'l,
Nimaga yarardi endi bu korim?
Yo'limda unmadi men istagan gul —
Bebaqo dunyoda bevafo yorim...
Yurak bo'm-bo'sh, ko'zim yoshi ko'l.

Tog'day toqatimning toqiga yetdim,
Zaminning tog'lari tubanda qoldi.
O'tkinchi dunyoning havasin netdim,
Jafolar haq ishqin ko'nglimga soldi,
Tog'day toqatimning toqiga yetdim.

* * *

Tun qaridi
Mening shirin tushimni ichib.
Tun qaridi
Ko'zlarini
Yumdi ohista
Soch-soqoli oqardi tamom.

Voajabo,
Bu ne sinoat,
Aql bovar qilmas mo'jiza:
Entiktirdi butun olamni
Keksa tunning
Rangin jamoli.

— Биң сиздең көзінен шының ойынан
... — Биң сиздең көзінен шының ойынан

... — Биң сиздең көзінен шының ойынан
... — Биң сиздең көзінен шының ойынан



O'TINCH

Boqayin taqdirga bir dam ishonch-la,

Yetar, shubhalarning bellari sinsin.

Eng sara nigohing menga bag'ishla,

Bir faxr ko'ksimda chechakdek unsin.

Ko'zingda nigohlar qonib sehrga,

So'ngra sochilarkan, u — abri nayson,

Bag'rimni bo'shatib bergay mehrga

Rashk deya atalmish ko'p yovuz yilon.

Otashin tuyg'ular yoqsin dilingni,

Sen mening bugunim, sen mening ertam.

Kel endi, qo'limga qo'ygil qo'lingni,

Holimga beparvo qarama, erkam.

Ishon, falak suysa, bizni suyadi,

Chulg'agay bizlarni oftobrang shu'la.

Yuragim qa'rida bir so'z kuyadi:

«Eng sara nigohing menga bag'ishla!»

Quyosh ko'kka qadalgan payti,
Tiriklikning eng ma'sum baytin
Qo'shiq qilib soylarmi aytdi...
Ishqim qalbda cho'g'landi yal-yal.

Mehrin menga ko'p ko'rib gullar,
O'tgan edi necha oy, yillar,
Bu charx tag'in ne payg'om yo'llar?..
Ishqim qalbda cho'g'landi yal-yal.

Muhabbat deb to'kilgan edim,
Taqdirimdan o'kingan edim,
Toleimga yuelingan edim,
Ishqim qalbda cho'g'landi yal-yal.

Umr yo'l deb aytmishdir bashar —
Jim borurmiz qay tomon boshlar.
Bilmasmiz ne yo'llar tutashar,
Ishqim qalbda cho'g'landi yal-yal.

Shundoq g'alat hayot o'yini:
Bir ko'rsatib yorning bo'yini,
Qo'zg'otdi-ku, hislar quyunin...
Ishqim chunon cho'g'landi yal-yal!

SONET 1

Kiprikka ilinmas uyquning to'ri,
Uzun tun ko'ksimda orziqish, hovur.
Xayoling habibim to tongga dovur,
Subhidam sezilar hasratning zo'ri.

Oftob g'amzasida mujda ko'rur —
Ro'yoni chilparchin qilgan haqiqat.
Sen — ko'nglim ko'shkida ko'hlik ko'hinur,
O'ngimmi-tushimmi, tark etma faqat!

Zero, ishq so'qmog'in bor-yo'g'i jafo,
Undan yuz o'girmak xurofot, bid'at.
Oshiqqa hamisha taxayyul ravo.

Umidvor ko'ngilda boqiy muhabbat,
Ishqsiz umr g'arib, dillar benavo.
Mudom o'yimdasan, ilohiy tal'at!

2000



* * *

Siz menga keraksiz,
qaqragan lablarga
zarur tomchi suv
va yokim
qushlarga qo'sh qanot
shaksiz
hayot atalgandek
keraksiz illo.

Siz menga keraksiz,
har lahza o'ylab,
his qilib har lahza
nafasingizni
bir otash sog'inchdan
muzlab boraman.

Men kulbaman
tunning qanshari
butun vahshati-la
o'yib chizilgan.
Siz shu'lasiz,
hadya etib
qatra tabassum
qo'rquvimni arituvchi kuch.

Kimligimni
o'zim bilaman,
qo'ymadi
Sizni-da yaxshiroq bilmoq istagi,
ko'nglingizga yurishlar qildim.

Ko'rdim
ul ma'voda nelar borligin
faqatgina
menga atalgan.

O'sha Nelar
quvvat bo'ladi
tag'in biroz yashashim uchun.

Siz esa beparvo
boqmaysiz hatto
yerparchin vujudga
aylab bir karam.

Uni xarob etar
ezib tobora
andak g'urur ila
tog'day sabringiz.

Siz menga keraksiz,
ko'ngil vodiysi
ming yillarki yo'qotib qo'yib
intizor ko'zlagan
pokiza nasim.

Garchi ayon
sarhadi yo'q tasavvur
qudrati hechdir
Sizning ta'rif-
tavsif oldida.

Biroq
barcha haqiqatlar
ma'nisiz menga
bag'rimda yasharkan
munis muhabbat.

Toki shovullarkan
hayot daraxti
ko'ksimda avaylab
hislarga chirmab
muqaddas duodek
takrorlagayman
umrimning mazmuni
iforiy so'zni
«Siz menga keraksiz!».

SABOQ

Ruhingni kuydirsa savollar
Saratonning cho‘g‘ quyoshi kabi.
Yursang,
Tizginsiz o‘ylar yetagida
Biyaning ortidan qolmas qulunday
Va hayot neligin anglamoq bo‘lsang,
Sen albat yo‘lingni dengiz tomon bur.
Quruqlik sirlaridan ayricha,
G‘aroyib sirlarga bag‘ri limmo-lim
Buyuklik qoshida sukul saqlagil.
Bir-birini quvib o‘ynagan
Beg‘am to‘lqinlarning qo‘srig‘in tinglab,
Tushunib yetasan:
O‘zi qizarib
Jo‘yaklarga rang bera bilmas
Qulupnayadir hali o‘ylaring.
Shu o‘ylarni kun o‘tib bir kun
Mangulik yaratsin, desang mukammal,
Sokin g‘alayondan saboq ola bil...
Ishongin,
Sohilni tark etar oningdan
Hayotga boqasan tunday xotirjam.



Maysani maysadek ko'rdim men,
Xarsangni xarsangdek, gilni gil.
Yomg'irni bulutdan so'rdim men...
Tangrim, ko'rligim-chun kechirgil!

Oftobga toblanib yayradim,
Zilol suvdan simirdim qona.
Tilimni sanoga qayradim.
Dahri dunga boqdim hayrona.

Asriy tog'lar haybatin tuyib,
Aql-u hushim tamom adashdi.
Kiyimlarin irg'itib, kiyib,
Tegramda yuz fasl almashdi.

Hayrat bo'ldi daraxtda bitgan
Rizq ham hatto, yashirmam, e voh.
Mo'jizangdan mo'jiza kutgan —
Men g'ofilni kechirgin, Olloh!

Voh, sajdaga boshimni egdim,
Seni bilmas bandalar miskin.
Ko'p takabbur, ko'p dahriy edim,
Biroq rahming ko'ngilga taskin.

Haq deb yashash — ulug' hidoyat,
Ro'y berajak birdamas birda:
Ishqing tug'yon urgay nihoyat
Yo Rab, uch yuz oltmishtomirda.

Bu olamni etolsa g'orat
Majnunligim ovozalari.
Ujmoh sari ochilgay shoyad
Asl Vatan darvozalari!..

KO'K GUMBAZ

*Qarshi shahridagi XVI – XVII asrga mansub
tarixiy obida qoshidagi o'ylar*

Dolg'ali kechmishni ravo ko'ribdi,
Seni suronlarga tashlagan qismat.
Mangulik qahqaha urib turibdi,
Boshingda yillarni qilichdek sermab.

Mag'ru rursan, yelkangda asrlar changi,
Poyingda tin olar sahroyi yellar.
O'tdi ne zamonlar o'chgancha rangi,
Qaraysan: yana ne davronlar kelar.

Sharafga guvohsan, xo'rlikka guvoh,
Barchasin o'ylasam, shoshadi aqlim.
Mo'minlar tilidan tushganda Olloh,
Ilk bor ko'chib tushgan g'ishtlaring balkim.

Ko'rding, vaqt ummonin to'lqini bilan
Necha dov-daraxt-u xaslar o'tdilar.
Hasadda to'lg'onib, seni zamindan
Supurmoq istagan kaslar o'tdilar.

Qo'yningdan oltin-u gavhar izlagan
Yovuzlar qo'lida necha to'p ko'rding...
Eng mushkul damda ham Haq deb bo'zlagan,
Dilida xudosi borni ko'p ko'rding.

Niliy naqshlarda o'ynagan oftob
Hamsuhbat bo'lgandir senga gohida.
Sen — nokas o'tida yonmagan kitob,
O'tmish va kelajak oralig'ida.

Bolangman, bosh urib tavofga keldim,
Xotirot kunjlar yorishdi elas.
Davrlar o'tkinchi, sen boqiy, bildim,
Olis bolaligim osmoni — gumbaz!

Bag'ringda besh kunlik mehmon bo'ldimmi?

Ey, ota makonim, ey ona tuproq!

Boshda qirov, endi qadring bildimmi?

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

Tug'ilmoq — o'lmoq deb aytmishlar... qaydam,
Senda ko'z ochibman, o'limlar mayda!

Umr — qog'oz kema bamisli soyda,

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

Bolalik gashtini totganim esda,

Oyoqyalang bo'lib chopganim esda,

Bahorda boychechak topganim esda,

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

Qo'yningdan xas kabi uchirdi taqdir,

Goh u yon, goh bu yon ko'chirdi taqdir,

Fe'li keng otamdek kechirding oxir,

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

Muhabbat shunchaki bir ermak devdim,

Bir qizni laxcha cho'g', o't bo'lib sevdim...

So'ng hijron, azobga esh qildi sevgim,

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

Quvonsam, ul sevinch yoshimda bo'lding,

G'am cheksam, shu ruhsiz loshimda bo'lding,

Hamisha o'yimda — qoshimda bo'lding,

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

Men fano ilkida, baqodadirsan,

Ko'zimga surtgudek ozodadirsan,

Mushti par onamday duodadirsan,

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

Hanuz angolmadim o'zim o'zimni,

Mangu yumar bo'lsam bir kun ko'zimni;

O'zingga ishongum o'g'il-qizimni,

Ey, ota makonim, ey, ona tuproq!

O'ZBEKISTONNING ILK JAHON CHEMPIONIGA

Sen uchyapsan...

Mo'jiza yuz bermas deya ishongan
G'animlar ko'ksida bir armon qishlar.
Parvozing poyida asov dengizday
To'lg'onib-to'lg'onib guvlar olqishlar.

Sen uchyapsan...

Shamol baqrayadi, uning karvoni —
Bulutlar tarqalib ketadi shu tob.
Milyon tilsimlarga guvoh bo'lsa ham
Hayratdan oqarib boradi oftob.

Qayga axir,

Axir nimaga?!

Beadad savollar qolar javobsiz.

Bir mehr ko'zingda cho'g'day yonadi,
Gumrohlar anglamas ko'zlarni, esiz.

Yo'qsa o'qirdilar ko'ngil lavhini,

Ko'zlarda aks etar misli alanga:

«Menga qanot bo'lgan ko'k ishq emas,
Otash muhabbatim ona-Vatangal!»

Uchyapsan!

Yurtning osmoniga oyday yarashib,

Yo'qotib qo'yadi qushlar hushlarin.

Yodingga tushadi, yuraging to'lib,

Ma'yus kuzatganing bir vaqt qushlarni...



Dunyo, qo‘yning to‘la umrlar chil-chil,
Tovonim qavardi o‘tganim sayin.

Betizgin, bemanzil o‘ylarim zil-zil,
Bir kam ne bor yana o‘zi sendayin?..

Sen mangulik tomon, men bir o‘tkinchi,
Qo‘y, ermak qilmagin araz-o‘chimni.
Nogoh tilga ko‘char dilim o‘tinchi:
— Nima qilib qo‘yding, o‘ttiz uchimni?!

Poyingga yillarni xazondek sochdim,
Goh dilxush, goh dilxun lahzalar bilan.
Nimani angladim, ne sirni ochdim —
Yo‘qlikka uzatdim larzalar bilan.

Toshbaqa misoli imillab goh kun,
Chaqin shiddatida kechdi davrlar.
Atrofga ser solib qarasam bugun,
Qancha tanishim yo‘q... qolmish qabrlar.

Nahotki, o‘ylayman, inson taqdiri,
Oldindan hisoblab chiylangan qarta —
Mag‘lublik qismatdir azal-oxiri,
Garchi o‘ynalsa-da faqat bir marta!..

Shundoq o‘tar bo‘lsa hayot degani,
Nechun g‘amga botay, nechun irg‘ishlay?..
Lekin ruhimdagи dardni yenggani
Najot qayda? Men jonimni bag‘ishlay.

Nima bor, ko‘rsatgil, jondan-da aziz —
Sog‘inib, sig‘inib yukinadigan,
Ranj-u alamiga shukr deb hargiz,
Usiz o‘tgan damga o‘kinadigan?!

Dunyo, sir-asroring yo‘qdir yakuni:
Hayot — hijron, o‘lim — visol, zafardir.
Bilsam, yashamoqning bor-yo‘q mazmuni
Haqning dargohiga ilinj, safardir.

YANGI YIL OQSHOMIDA

Tashqarida ajib bir holat. Dilda
Qor sog‘inchi kabi bir mubham tuyg‘u.
Hayqirdim, qo‘l cho‘zib go‘yoki qilga:
— Eski yil qa‘riga cho‘kyapman, yohu!..

Tanamni qutqarar do‘s-t-u yoronlar,
Biroq ruhim qayda, hech kim bilmaydi.
(Har qanday iltifot g‘ashim qo‘zg‘atar,
Qadrdon hislardan kechgim kelmaydi).

Shodon davralarda tabriklar yangrar,
Yangi tilaklarga aylanmas tilim.
Oh, mahzun holimni bunda kim anglar?..
Ko‘zimda shashqator ko‘nglimning seli.

O‘tmishga alvido desam batamom,
Balki erta bir kun afsus qilmasman.
Lekin muhabbatim — ul eski armon,
Ul go‘zal qayg‘umni topa bilmasman...


KO'NGIL MANZARALARI

I

Zardoli guliday to‘zg‘idi yillar,
Umrordan yulungan kunlar chirpirak.
O‘ttiz yil yolborib, bir narsa tilar
Bu yurak!

Quyosh har tong tog‘dan oshadi,
Zarlarin elaydi zamin ustiga.
Ko‘ngil kosasidan ko‘pchib toshadi,
Orziqib kutilgan diydor qasdida.

Kamalak nurlari ingan sharshara
Cho‘qqilardan uchib «bir go‘zal sindi».
Intiqlik zabitiga olsa sarsari
Umiding taftidan orzum isindi.

Chechaklar anbarin yo‘llarga tarab,
Qirga qaytar shamol — horigan to‘riq.
...Hozircha kunimga turibdi yarab
Mening dardim bilan og‘rigan borliq.

II

Men daryo
shiddatli to‘lqinga ilhaq,
Qaqragan qirg‘og‘im quchmadim ko‘pdan.
Men sahro
saraton qo‘ynida chatnab,
Uyur-uyur bulut tilovchi ko‘kdan.

Ildizman, shoxlari garchi yam-yashil,
O‘zi esa hanuz suvga yetmagan.
Men o‘sha, alhazar, parcha qo‘rg‘oshin,
O‘q bo‘lib ko‘krakka, shukr, botmagan.

Men o'sha, bir imdod topolmay nolon,
Daralar bo'g'zida qotgan iltijo.
Men o'sha, zarb ila otigal paykon —
Uchyapman, uchyapman benishon, bejo.

Men o'sha!..
Tumtayib, goh kulib o'tar taqqoslar,
Ko'ksimni yorguday potirlar qumrim.
Hilol ko'k toqiga o'zini osar,
Kutishga aylanib bormoqda umrim!

III

Ohista-ohista sinadi og'och,
Sim-siyoh tun ichra singadi unlar.
Ko'ngil zorillaydi, ko'ngil juda och,
Meni ta'qib qilar ishqtalab kunlar.

Nahot faqat tushda orzum ushalar,
Nahot tushda faqat topgum oydinlik?..
Notanti taqdirdan dilim g'ashlanar,
Biroq... ko'kda oy ham goho bir tilik!

Qachon to'lgan o'zi kami dunyoning,
Birdek aylanganmi ko'hna charxpalak?
Bu dunyo mulkidir asli ro'yoning,
Faqat mangu umid — yam-yashil palak.

O, yashil tuyg'ular, bor bo'ling har dam,
Al-amon, al-amon, ming bor al-amon!
Tegramda xazonrez qah-qah ursa ham,
Baribir men tinsiz yashillanaman...

* * *

Balki dunyodagi jamiki so'zlar
Sening ta'rifingga arzimas, ey moh.
Bo'lsa ham quyoshdek ular zo'r otash,
Eng xushbo'y gullardan yana xushbo'yroq.

Husning ta'rifini ishongin menga,
Ul qadim so'zlardan ko'mak tilamay —
Bitta so'z aytaman, tap-taqir cho'lida
Ochilib yashnagan qirmiz loladay.

Husning ta'rifini ishongin, dilbar,
Faqatgina menga, boshqa hech kimga.
Sen deya yaralib, olamga bir bor
Bo'yin ko'rsatmagan So'z bor ko'ksimda!..



BIR KUN

Bir kun menga tuhfa etadi seni,
O'jar nigohlarim mixlangan eshik.

Bir yorug' umidga intiq ko'ngildek,
Ajib tashrifingdan yorishar kulbam.

Jonimdan-da aziz boshingga sening
Yostiq bo'lganidan yayraydi ko'ksim.

Shunda iztiroblar haginda senga
Ertaklar so'ylaydi sog'aygan yurak.



* * *

Ko'm-ko'k maysalardan ko'rpacha to'shab,
Quyoshni kuymanib chorlagan dalam,
Bag'ringda yayrasam go'dakka o'xshab,
Qalbimni tark etar
balki oh-nolam.

Yoki tun zulmatin egnimga kiysam,
Abad sukunatning tutsam baridan,
Xalos etarmanmi

Sevgining muqaddas azoblaridan?
... Sadaqa tilagan tilanchi kabi
Men javob kutaman savollarimga.
Javobga ochilmas tog'larning labi,
Daryolar qayrilmas aslo zorimga.

Noiloj

Javobni o'zim izlayman –
yolvorib o'ylarga:

«Meni tinch qo‘ying...»

Xotiram devorin tirqishlaridan Sizib kiraverar

xayoling, o'ying.

ARMON

Uyg'onding,
Ruhingda gullar ochilgan —
Ishonib ki priklar to'qigan tushga.
«Rost bo'lsa, ahdiga umr ber, o'zing»,
Yer bo'lib yolbording samandarqushga.

«Shamoldek yelsam-u poyini o'psam,
Ko'ksimga bosh qo'yar unut dard misol», —
Ko'zlariningdagi tinsiz aylanaverar
Rayhonning suviga chayilgan xayol.

Umidni orqalab, chopasan xushbaxt,
Yellar yo'l bo'shatib, hayron boqishar.
Qanotim yo'q deya kuyinma hargiz —
Harqalay, quvonching uzoqroq yashar.



Qo'rqma, bu xavf o'tib ketadi,
Ko'rmagandek bo'lasan oxir.
Xavotirda qancha xatarni
O'tkarding-ku, eslagin axir.

Qo'rqyapsanmi, demak ulardan
Olomabsan kerakli saboq:
Har qachon ham kutilgan xavfning
Vahimasi o'zidan zo'rroq!



* * * *

Bir so'z bor,
Nomus deb to'kilgan qondek mo'tabar.
Quyoshning ilk nurin ichib ko'z ochgan,
Borliqqa ko'rк bo'lgan guldek muattar.

Bir so'z bor,
Har bir pok og'izga birdek yarashgan.
Bu so'zning sochlarin To'maris momo,
Muqanna bobolar suyib tarashgan.

Bir so'z bor,
Unga yetolmagan hali ko'p millat.
Shu so'zni unutib yashagan elning
Yegan noni bo'lmas aslo beminnat.

Bir so'z bor,
Yo'l erur u mangu vasliga Haqning.
Peshonasi oydan, tongdan-da yorug'
Shu so'zni tug' qilib ko'targan xalqning!

1990

ILTIJO

Orzular — oromning yovuz raqibi
Qonimda jo bo‘lib, zo‘riqar tomir.
Idrokim quvvati nuramay, bitmay
Bir kun poyoniga yetgaymi umr?..

Mushuk chovutidan zada chumchuqday
Mendan qochaversin imkoniyatlar.
Ularning ortidan quvib tinmagan
Ishtiyoq so‘nmasa, shul o‘zi yetar.

Gugurt donasidek pov yonib o‘char
Mayda quvonchlar deb yurmoqdan karaxt,
Bir yorug‘ nafratga esh bo‘lib, mag‘rur,
Qayg‘uning sochlarin silamoq ham baxt.

Parvoz etaverar humo qushlari
G‘arib boshim tomon nazar tashlamay.
Turfa xil malomat, dardning toshlari
Nolishga yo‘l bermas, «siylab» harqalay.

Vaqt — tulpor ustida uchib boraman,
Yurakda umid bor — chamandir yo‘lim.
Bu sayr ko‘ngilga tegmasdan burun
Jonimni olmoqqa ulgirgin, o‘lim!

* * *

Boshingda ne xayol?
Ketyapsan!
Menga
Muguzli azobni ro'para qilib.
Sen tushgan so'qmoqda yolg'iz chirildoq
Cho'zib nola qilar ko'ksimni tilib.
Otini egarlab chiqsa-da bulut,
Osmon chehrasini hali buzmagan.
Titrar barmoqlarim — qo'rkoq baliqlar
Soching dengizida qonib suzmagan.
Miqtin orzularni sovuq bir epkin
Yong'oq po'chog'iday ketar uchirib.
Sevinchlar nish urgan u totli damlar
... Xotirang bag'rida qolmasmi chirib?
Javob ber!
Kechmish xotiralar umri sen uchun
Yarq etgan chaqindek nahot birpaslik?
Balki seni qiynar mendagi o't ishq...
Menday sevmoqlikka qodir emaslik?
Ketyapsan!
Dunyo tarovatin ko'zimdan yulib,
Men tomon emaklar mal'un ayriliq.
Ul kasdan atrofim chambara qilib
Behuda urinar umid qiltiriq.
O'par izlaringni ozurda tovush,
Turnalar uchadi — ko'zida malol.
Sen esa adoqsiz munglarni ekib,
Ketyapsan!
Boshingda bir telba xayol...

* * *

Tortar xayolimni xira bir yulduz,
Uning miltirashi biz-chun behuda.
Sezilmas issig'i, yorug'i so'zsiz,
Papiros cho'g'iga o'xshaydi juda.

Qiyosim to'g'ri deb jar solmasman, yo'q,
Koinot sirlari shundayin chigal:
Kengliklar bag'rida o'sha jinday cho'g'
Milliard odamlarga quyosh, ehtimol.



XIYONAT

Erkak ko'zlarini nafrat yalaydi,
Bir alam o'tadi ko'nglini buzib.
Zor yig'lab xotini shafqat tilaydi,
Xiyonat silagan qo'llarin cho'zib.

So'z demay, chilparchin qalbini olib
Erkak jo'nab ketar bu badbaxt uydan.
Nafratning yog'ida jizg'anak bo'lib,
Ayol najot izlar xotirdan, o'ydan.

Eslaydi: sirli bog', g'aroyib oqshom,
Ilk bo'sa totini, bari-barini.
Lek bilmas nimaga lovullar yuzi,
Nima kuydirmoqda tovonlarini?..



* * *

Osmomonning mulkida yulduzlar sho'x-shan,
Zaminga kulgular to'kaveradi.
Kulguga cho'milgan shu tunda bedor
Har yurak Muhabbat tug'averaadi.

O, malak, yuzingdan oylar nur tilar,
Sochingni tun deya to'zg'itdi shamol.
Bir bedor yurakning egasiman men,
Tug'ilgan go'dakka kelgin, nazar sol.

Yurakning bolasi – sho'rlik muhabbat
Tashnadir, ichirgin, bir tomchi Mehr.
Muhabbat ulg'aysin, usiz bu olam
Yupun bir gadodir, ko'zları so'qir.



XALQ OHANGIDA

Qay kun hassos tabiat
Seni bundoq gul etdi.
Tushib ishqing uchquni,
Jigar-bag'rim kul etdi.

O'rtanar endi ko'ksim
Chidolmasdan bir holga:
Tundayin sochinggamas,
Vatan, axir, shamolga!..

Visolingga sig'inib
O'tgan kunlar tulladi.
Yuragimda yuz ming dard,
Qayg'u-hasrat gulladi.

Sensiz menga tiriklik
Kuylari ko'p hazindir.
Qalbda hijronning tig'i
Ki prigingday uzundir.

Osmonning bir burchida
Yulduz kulsa ko'zingday,
Sog'inchning zil yukiga
Hammol yo'qdir o'zimday.

Kelgin, endi toqat yo'q,
Karam etgil, suygilik.
Azoblarga chek qo'yar
Yo visoling, yo o'lim!

Rangin bolalikka alvido aytar,
Yugurik Vaqt bir-la yelib ketyapman.
Angladim: umr – suv, oqmagay ortga,
Bolalik qadriga endi yetyapman.

Maysa xotiramni shabnam so‘zlarim
Bir kuni bezaydi – umidim bordir.
Hali ko‘p bahorga tashna ko‘zlarim
O‘n sakkiz bahorni yutib yubordi...

Bahorki, har biri umrimga bezak,
Ularga qo‘shqo‘llab mehrimni berdim.
Ayniqsa, so‘ng ko‘rgan bahorim bo‘lak –
Ilk sevgi gullarin shu fasl terdim.

Endi bu gullarni bag‘rimning chuqur,
Mustahkam yerida asramog‘im shart.
Toki bu gullarga burgutdek uchqur
Yillarning shamoli qo‘ndirmasin gard.

1985

MAKTUB

Qiyinmi, purviqor tog'lardek beso'z,
Namoyish etmoqlik ulug'verlikni.

O'rghanmoq, zerikmay bamisol'i ko'z,
Inja bir diydorga abad zorlikni.

Yo yashash dengizdek sirdan tinch, biroq
Ichda ming to'fonni shundoq yashirib?...
Loaqal mumkin-ku, ishoning, sevmoq,
Sevaman, deb sira hayqirmay turib!



O, buyuk muhabbat, yam-yashil dengiz,
Po'rtana bag'ringga o'zimni otdim.
Sirlarga limmo-lim cheksiz qo'yningda
Bir inju ko'rdim-u, yana yo'qotdim.

O'ylayman, ul inju diydori sekin
Xotiram bog'ida tiklana boshlar.
Hajrida o'rtanib yongan yuragim
Ko'krak qafasimni kuydirib tashlar!

1984





* * *

Qon sachradi –
Quyosh ko'ksiga
Raqib urdi pichoqni chog'lab.
Og'riqdan zo'riqqan borliqni
Qorong'ilik oldi quchoqlab.

Xavotir-la boradi erib,
Oy – yorug' umidi osmonning.
Intizor ko'zlardir yulduzlar
Tashrifiga hamshira – tongning.



* * *

Yigirma bir yilki, ko'ksimga qamab,
Avaylab asrayman bir qushni yakkash.
Bu qushning mehribon sohibasini –
Bokira bir qizni topmay ko'nglim g'ash.

Taqdir uchratarkan ne-ne go'zalni,
Qushginam ko'ksimda nogoh titraydi.
Afsuski, men uni o'zimdan bo'lak
Hech kimga ishonmam, ko'zim qiymaydi.
Hanuz egasini topmagan qushning
Intizor yonishi ezadi meni.
Yodimdan o'chmagay: bir kun tushimda
Qaysi bir suluvga topshirdim uni.

Topshirdim men uni. Bilmay suluvning
Mehri ham sochidek qisqa ekanin...
Endi o'ngimda ham jonimni tirnar
Tushdag'i saboqning o'tkir tikani.
Shubhalar o'tiga dosh berib arang,
Tahsin aytmasam-da bemavrid tushga,
Erk tag'in qanotin qayirmasin deb,
Yordam berolmayman bechora qushga.

1988

SONET 2

Bir kun uchajakman men ko'kka ozod,
Betakror parvozga lol boqasiz, lol.
Bir bo'ron shiddati qalbimda, hayhot,
Bag'rimda bo'ladi yulduzu hilol.

Tegramda yuzgancha bulutlar sokin,
Mahzun yuragimni etgaydir obod.
Bilmasman o'shanda nedir orom, tin,
Uchgayman bearmon, garchi beqanot.

Men yetgan yuksakka yetmay bir bora,
Sohibi qanotlar — qushlar bechora,
Tikkaydir ko'zlarin menga ko'p o'chli...

Uchaman. Bu yerda shubha nokerak,
Qalbimda potirlar ishonch va istak —
Har ne qanotdan-da ming karra kuchli!

1987



FAXR

Visjima bir yilki, ko'sanib o'maydi.

Alay Baxt nasimi nozlanib esgan

Bu q Tog'day Ishonch etaklarida

Bir q Orzularning rangin chechagi

Bir q Muhabbat bo'yidan qonib o'sguvchi

Tengsiz bir Olam bor olamda.

Qush Menman o'sha beqiyos Olam —

Afsu Bag'rida sendayin Quyoshi bo'lgan!

1984





* * *

Ilohi, cho'maman o'ylar qa'rige,
Yeldirim umrimga izlayman ma'ni.
Ko'hna majozlardan qochib nariga,
Men kashf etajakman, bilmam, nimani?..

Besabr ko'ngilda havaslar giryon,
Bu jonim shuhrat-u muruvvat quli.
Kelmag-u ketmakin maqsad noayon,
Qachon yuz ko'rsatur chin hayot guli?

So'ng manzil qayda u, arshmi, yer osti,
Tiriklik shomida xotir abasmi?
Nahotki cho'ng qayg'u — o'limning dasti,
Yo tanim ruhimga jonli qafasmi?

Ko'zimga savollar suvratin chizib,
Sang'idim zaminning o'r-u qirida.
Hayratim ming bo'ldi, qonlarim qizib,
Idrokim yetmadi gardun siriga.

Nochor quloq tutdim tog'-u toshga ham,
Falsafa to'qidi qadim bir xarsang:
«Sen fony dunyoda bebahodam,
Vujuding tuproqqa tengligin bilsang...»

TAZARRU

Yugurib charchadim, yetar, endi xo‘p,
Yurganim ko‘nglimning yetaklariga.
Zor qaqshab topgandan yo‘qotganim ko‘p,
Yopishib dunyoning etaklariga.

Holbuki birovdan kamim yo‘q edi,
Ho-yu havaslarin ko‘rdim olamning.
Ta’qib etaverdi armonning hidi –
Sajdada o‘tmagan umri odamning.

Kimdan yuz o‘girib, kimga tikildim,
G‘addor nafs pardasi to‘sib ko‘zimni.
Ishvalar poyiga tutdek to‘kildim,
O‘zimni unutdim o‘ylab o‘zimni.

Ne ko‘rsam lol bo‘ldim mahobatiga,
Baridan tutmadim har dam ilmni.
Endi zor turibman inoyatiga,
Himmatning qo‘riga toblab dilimni.

Jonimga azoblar so‘rarman behad,
Va ishqil ko‘yida xorlik, adolik.
Jamolin ko‘rsatsa bir kun Haqiqat,
Anglarman: ne sharaf ushbu gadolik!..

* * *

Ming bitta xavotir jonomni cho'qib,
Ko'nglimning bisoti — ezgu dardimni
Axiyri men senga inondim, go'zal.

Bir o'tinch kuydirar endi dilimni:
«Sen meni o'zingdan ortiqroq sevma,
O'zimdan ortiqroq meni tushungin!».



Endi, qanabot qanabot, qanabot!
Jovdirar jovdirar, qanabot!
Ichingiz qanabot, qanabot!
Tingleyan!
Bobos! Bobongel! qanabot!
O'tanbanty, bantida qanabot...

* * *

...ga

Bilaman, sen mendan kutyapsan bir gap,
Istaysan, sevdim, deb yorilmog'imni.
Iqrormas, izhorlar ko'paygan paytda,
Izhor deb qiynama tag'in jonimni.

Holbuki, ko'z yoshdek tiniq sevgimga
Kerakmas, ishongin, zarracha izoh.
Ishqimga muhabbat dardlari cho'kkam
Ma'yus nigohimning o'zi, bil, guvoh.

Yaxshimasmi, oftob abadulabad
Porlagandek faqat samo bag'rida,
Yashasa sevgimiz tillarga ko'chmay,
Ma'sum qalbimizning kengliklarida?!

1985



* * *

Juda tez ishonding,
O'tmish qora kitob ekanligiga.

Ishongandek kaltabin odam
shaklin yo'qotmasdan olovda muzning
pishmog'iga biram qizarib.

Zero bilar eding, shu qora kitob
faqat senikidir, o'zganing emas,
quyosh — olov koptok
(asrlar guvoh)
yolg'iz osmonniki bo'lgani kabi.

Ammo sen
(bu ne ko'rgulikdir o'zing ayt, falak!)
uloqtirding kitobni chetga —
o'zanidan voz kechgan daryo!
Senga tinchlik bermadi axir,
qirg'oqqa intilgan to'lqin singari
qulog'ingga urilib turgan
«urushqoq» bobolaring olis «urho»si!

Endi,
qarmoqning bandisi — ochko'z baliqdek,
jovdirab-jovdirab ko'zlarining nochor,
ichingga yutgancha zildek alamni,
tinglaysan,
bobosi bobongdan musht yegan kasning
o'tmishing haqida qiroatini...

1990



* * *

Ustoz Ikrom Otamurodga

Sukunat ko'ksida kezadi shovqin,
Turkiston tunini tutmoqda to'lg'oq.
Og'riq ko'p haddidan oshgan lahzada
Gumburrlab qo'yadi momaqaldiroq.

Omadlar tilaydi tunga kyunib,
Shu yurtning har bitta giyoh, toshlari.
Bir buyuk tashrifga ishonmay hanuz,
Keksa chinorlarning egik boshlari.

Boyo'g'li xotirjam kutar o'ljasin,
Bilarki, bu to'lg'oq uzoq cho'zilar.
O'tlug' harorattan erib adodir
Tunning ko'z yoshlari – hadsiz yulduzlar.

Baribir tog'larning bashorat so'zi
Tilidan tushmaydi sira saboning:
«Tong albat tug'ilalar, doyalik qilsa,
Sayroq to'rg'aylari Qashqadaryoning!».

1990



CHORLOV

Yuragim sog‘inchdan uvalandi-ku,
Qaydasan, ko‘nglimning ey nozli qizi.
Tun. Sukunat.
Dimog‘imda sarmast shamollar
Olib kelgan atirgul isi.
Kelgin...
(Tungi iliq havo to‘lqini
Iltijomni qalbingga quysin).
Kelgin!
Mening tashna ko‘zlarim bu dam
Diydoringga bir bora to‘ysin.
Bilmaysan,
Ne ko‘yga soldi sog‘inching,
Holimni birgina yulduzlar ko‘rar.
Men kabi ezilib osmon qa’rida
Ko‘z yoshim misoli mo‘ltirab turar.
O’tinaman, yolg‘izim, bag‘rim,
Sog‘inch go‘lahida qoldirma meni.
Sog‘inch o‘tidan-da otashroq labim
Anglagin, shu damda istaydi neni?..
Bahorni sog‘inib mung‘aygan daraxt
O‘ylarin onasi bo‘lgan bu olam —
(O‘rmonga charsillab o‘t tushgan kabi)
Kelsang,
Quvonchimdan yorishgay birdan.
Diydam kosasiga begona uyqu
Halovat izlabon axir charchadi.
Kelmasang, bu tong ham meni deb osmon
Zarbof choponidan yana kechadi...

ORZU

Hayot tashvishlarin irg'itib qo'yib,
Simirgim keladi to'yib va to'yib
Yomg'irdan keyingi toza havoni.

Simirgim keladi yutoqib, shoshib,
To uning sofligi o'pkamdan toshib,
So'ngra vujudimga singsin qon kabi.

1985



OSHIQ DO'ST MAKUBI

Ishondim, sevilmay yashamoq og'ir,
Kul bo'lib ishqida, oshna, bir qizni.
Kelsang-ku, o'zing ham ko'rasan, hozir
Men — suhbat mavzusi qishlog'imizning.

Gullar ochilarmi bog'da anvoyi,
Yoki tun to'sharmi qop-qora choyshab —
Bariga befarqman, tund va yovvoyi,
Yolg'izlik istayman Majnunga o'xshab.

Majnunlar zamoni emas, bilaman,
Ko'p narsa o'zgargan ushbu asrda.
Lek netay, o'ylarim egasi bo'lgan
Bir Xayol yashasa ko'ksim qasrida?

Kezaman tun-u kun kimsasiz dashtni
Zilday rad etilgan ishqni ko'tarib.
Qay toshga urmoqni bilmayman boshni,
Odam yo'q mendan-da nochorroq, g'arib.

Hech kim tushunmaydi, holimni, afsus,
Loaqla sen tushun, qilmagin ermak.
Axir, muhabbatning ko'zi ko'r hanuz,
Axir, bo'ysunmaydi buyruqqa yurak!

Baribir taqdirdan yozg'irmam zinhor,
Shu sevgim ruhimni qo'llagay har dam.
Faqat, bil, past emas, yuksakman ko'p bor
Yurakda ishqni yo'q baxtiyorlardan.

1990

TUSH

Bir tush ko'rdim,
yo'q unga ta'rif:
biram rangin,
biram nrafshon,
Bu tushga sen
aylading tashrif –
ki prigi o'q,
nishoni-chi – jon!

Tashlab senga
ko'zin qirini,
xijolatdan
oftob soch yuldi.
Sen deb, yorib
zamin qa'rini,
turfa xil gul,
chechak ochildi.

O'ngimda-ku,
firoq ila g'am
ruhimni ko'p
etgandi mayib.
Boqding shifo
nigohing bilan
tabassumga
yuzingni chayib...
Bir tush ko'rdim,
yo'q unga ta'rif!

ISLAM'GÝ TOÝTÝR NEKBINLIK

Ko'ksimda yastangan zahrolud hajr,
Tun, kulma milyonlab ko'zlarigý bilan.
Umidim bor, axir, zulfizariga
Bag'rimni to'ldirgay hali iloham.

Osmonday yuksalib, hali bu bag'rim
Qaqnuslar raqsiga qonar kun yaqin.
Badqovoq osmondan voz kechib oxir,
Yulduzlar shodasin keltirar chaqin.

Bir tongki, borlig'i sutga chayilgan
Va uning ishqida ko'zi yosh maysa –
Neki bor olamda meniki bo'lar,
Iloham zulfini ko'ksimda yoysa!..

Ko'ksimda yastangan zahrolud hajr...

Sabidan tor...
Hade...
M...
...
...
...

L...
...
...
...

T...
...
...

I...
...
...

...
...
...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...

...


...

EHTIYOTKOR ODAM SO'ZLARI

Yurakni hovuchlab yashamoq og'ir
Bu notejis, ko'p o'nqir yo'lida
Qoqilib ketmayin degan o'y bilan.

Kimga etak, kimga yeng bo'lib,
Birni aka, birni uka deb,
Topib oldim sip-silliq yo'lni.

Yurak esa hanuz hovuchda –
Sirpanib yiqilmoq xavfi qo'ymaydi!



* * *

Taraddud sezilar bahrul ochunda,
Niliy ko'k etagi goho turlanar.
Mung'aygan, yalang'och bog'ning sathida
Toptalgan yaproqlar faryodi yonar.

Og'ochlar ko'ylagin yulib to'ymagan
Shamol ko'zlarida hadik, talvasa.
Yashilto'n archaga zor etgan uni,
Ayoz qahri bilan bog'liq vasvasa.

Maysa unutgancha beshafqat o'roq
Bergan jarohat-u dardning barini,
Noma'lum bir fursat qo'shib o'ziga
Ko'mar ohorlangan umidlarini.

Bo'sh in suvratida motamsarolik,
Laylak qanotlari ayriliq tug'mish.
Sabrdan to'ralgan minora anglar
Hademay borliqqa hokim bo'lar qish.

Lek ko'ngil qiziqmas olamda ne hol,
To'ldirib har yonni chorlov xatiga:
Bahor tashrifini kutadi intiq,
Yurakning daxlsiz saltanatiga.

EZGIVODA * * * SUZLARI

Quvontirmas qaysi otani
O'z o'g'lining jindek yutug'i.
Insondagi jami xislatdan
Shu eng oliy, shu eng ulug'i.

Ushalgandek umrlik armon,
Ota ko'ngli shodlikdan jo'shar.
Shu damda u she'ri tufayli
Mashhur bo'lgan shoirga o'xshar.



Bir farahli kunlar yarataylik, kel,
Yaqin yo'latmasdan dilga kadarni.
Qaragin, yeb to'ymas bu uchqur yillar
Tanovul qilmoqda xotiralarni.

Bokira bolalik kunlarin yodi
Hazm bo'lar ekan yillar qornida,
Novdamizdan uchgan har yaproq uchun
Yangi barg yozaylik, afsus o'rnilida.

Xotirot sathida bir iz qoldirmay,
Lahzalar yo'qlikka ketmasin o'tib —
Har lahza mazmunin asalga qorib,
Umrimiz labiga qo'yaylik surtib.

Qani kel, sen kelsang, vaqtning zarbasi
Tahdid sololmagay xotirga hecham.
Chirqillab yo'lingga intizor boqar,
Umidim — yolg'izim, umidim — qushcham...

IZHOR

Oddiy bog‘ emas, yo‘q, bu bog‘i Eram,
Poyingda xazonmas, sheroziy gilam.
Sukunat jimlikmas — bir ulkan hayrat,
Kechagi men emas, men ham sen bilan.

Osmonda quyoshmas, u tilla barkash,
Sochmoqda boshingdan shoda-shoda dur.
Shoxlarda qimtingan, jamoling ko‘rib,
Ko‘zлari qamashgan sanduvoch erur.

Sochlaring iforin tuyib entikar
Tarovat tark etgan qovjiroq gullar.
Poyingga yaproqdek bosh ura olmay,
Teraklar armon-la sokin shovullar...

Yuragim sel bo‘lib toshadi masrur
Tasavvur olamin jilvalaridan.
Zim-zijo ko‘nglimda oftobdek balqqan,
Sen yuksak mo‘jiza bari-baridan.

Benavo o‘tmagay damlarim endi
Sepkil yuzlariga termilib tunning.
Sen borki, boqiydir umrimning tongi,
Ey, kuzda yuz ochgan bahorim mening.

UMR POYONIDA MUQANNANING XAYOLIDAN KECHGANLARI

O‘, elim,
Erkni bolasidek suygan, elim-a,
Ishonching qolmadi nahot o‘zingga?
O‘tlarda toblangan
Tig‘ kabi keskir
Nigohlar ko‘rmoqni istab ezildim,
Qurigan dengizdek bo‘m-bo‘sh ko‘zingda.
Ishondim:
Pichirlab yashamoq joningga tegib,
Na‘ra tortajaksan ochiqchasiga –
Yorishib ketajak barchaning ongi
Ozodlik so‘zining alangasida.
Orzu qilaverdim.
Maysalar chinorga aylanmagandek,
Orzum ushalmadi – baxting kulmadi.
Taftiga quyosh ham dosh bera bilmash
Olovga yuraging makon bo‘lmadi.
Sabr va bardoshning patlarin tishlab,
Taqdirga tan bergen odamlar, qayting,
Bu xo‘rlik bizlarga mangu nasiba
Emasdир,
Olamga baralla ayting!
... Armon-la o‘tmoqni istamasman, yo‘q,
Shu bois o‘t qo‘ygum endi o‘zimga*–
Vujudim olovdan liboslar kiyib,
Abadiy
Aks etsin, elim, ko‘zingda.

1989

* Rivoyatlarga ko‘ra Muqanna o‘z-o‘ziga o‘t qo‘yib halok bo‘lgan.

ОИЛЛАҚАҚИМДОТОЧ ЯМУ

ИРАМДАСХ ҒАСЫРДАХ

Hammayoqda atirgul isi,

Har narsadan izlayman ma'no.

Xayolimdan ketmagay isming,

Gulira'no.

Bir dard o'rtar meni beomon,

Bu dardga hech bormikin davo?

Chora istab, chopdim har tomon,

Gulira'no.

Berolmasman taqdirga firib –

Sensiz baxtim kulmagay aslo.

Huzuringga keldim bosh урib,

Gulira'no.

Men bilmasman ishqning tilini,

Noming qalbda yashnagay ammo.

Xazon etma sevgim gulini,

Gulira'no.

1989

Tong kuladi go'dakday mayin,
Quyosh nurin sochar beminnat.
Farah hokim qayon boqmayin,
Yuragimda anduhlar faqat.

Har yon sobit surur hamda shan,
Biroq ular... menga totmaydi.
Axir, netay, yonimda yo'qsan,
Yu ragimning tongi otmaydi.

Har yon sobit surur hamda shan,
Biroq ular... menga totmaydi.
Axir, netay, yonimda yo'qsan,
Yu ragimning tongi otmaydi.

Har yon sobit surur hamda shan,
Biroq ular... menga totmaydi.
Axir, netay, yonimda yo'qsan,
Yu ragimning tongi otmaydi.



VATAN SURATI

Vatan suratini chizmoq og‘irdir,
ammo shu suratni chizmoq istayman,
unga mos ranglarni tinmay izlayman,
qayda bo‘yoq bo‘lsa, ko‘raman bir-bir.

Lek qanday chizaman ko‘nglim to‘lmasa,
bu qadim ma‘voning buyukligini,
eng ezgu so‘z kabi suyukligini
ifoda etuvchi bo‘yoq bo‘lmasa.
O, yurtim, husningga boqib to‘ymayman,
bundayin go‘zal rang qayda bor axir –
kamalakning yetti tusiga tatir.

Chizaman, farzandman, chizmay qo‘ymayman,
chizmay desam so‘ngra qiynar armonim,
balki bo‘yoq bo‘lar yuragim qoni!..

1984



* * *

Men sendan olislab ketganim kundan,
Taqdir siylamoqdan o'zini tiydi.
Yillardek sudralib o'tdi lahzalar,
Ko'zlarim sog'inchdan liboslar kiydi.

Sahrodek qup-quruq qalbimga tinmay
Hasrat urug'ini qadar sukunat.
Chorasiz o'ylarning qonini so'rib
So'ng achchiq mevalar tugadi hasrat.

Bir marg'ub maskanni tentirab izlar,
Yurakni tark etgan bechora shodlik.
Firoqning nazdida vujudim go'lah —
Bag'rimga o't qalar sira behadik.

Bu siniq ruhimni tiklamoq bo'lib,
Farishtam, takrorlab aziz nomingni,
Chillada bahorga ilhaq qush kabi
Qo'msayman ruhafzo tabassumingni.



* * *

Sen ketding,
Bulbulning ko'zidek yog'du topmadim,
Shabiston ko'nglimni yoritmoq istab.

Sen ketding,
Yutib yubormadi meni yolg'izlik —
Ko'kragim ichiga berkinib oldi.

Sen ketding,
Qaqroq tillarini bigizdek sanchib,
Jonimni ichadi so'nggi pushaymon.

Sen ketding,
Muqarrar ajaldan suvlari zilol
Taxayyul tubiga cho'kib qutuldim:
(O qaytding, xayriyat, xayrr...)



HECH NARSA SO'RAMA

Hech narsa so'rama, bu ziqna hayot
Baribir qo'lingga tutqazmas qopin.
Hamisha yor bo'lzin navqiron sabot,
Topinsang ham yolg'iz sabringga topin.

Olamda baxt bor, deb seni avragan
Yolg'onning jigarin yegan qasida.
Hushyor bo'l, zor etma ulkan yurakni
Hayotning urvoqdek sadaqasiga!

Abadiy quvonch ham, qayg'u ham yo'qdir,
Loaqal birimas, biriga to'ysang.
Baxt bo'lsa, yashnasang yashil daraxtday,
Dard bo'lsa, zo'r do'zax o'tida kuysang!..

Hech narsa so'rama, chidagin faqat,
Sabring qirg'oqlarin buzsa-da toshqin.
Chidamoq og'irmi, olaqol unda
Bir chimdim azob-u bir yalam ishqni!..

АМАСИ * * * АЗИЯН НОРК

Yuzing shu'lasidan dilda o't,
Bu o'tni o'chirmoq — zo'r gunoh.
Botinimda alanga raqsi,
Yuz oh, ey moh, sen emas ogoh.
Olmos qirralari jafoning
Ko'ksimni poralar — haydar qo'sh.
Qonga to'lgan jo'yaklar uzra
Bir xush, yo tush, suzsang-chi, oqqush!

So'ngsiz azob o'ldirmas, ammo
Ko'zlarining qilichi ko'p yomon:
Nogoh hujum boshlasa ular
Bu jon omon qolmog'i gumon.



* * *

Quyosh o'tib ketdi o'z yotog'iga.
Qushchalaryning chug'ur-chug'uri tindi.
Borliq hadsiz zulumot quchog'ida
Tovush-u sharpaga zor bo'lar endi.

Bu vahm, zulmatni kim qilar udda,
Qani u go'zallik, tarovat qani?..
Ko'zimdan nigohlar sachrar behuda,
Kechagi chiroydan to'yib emgani.

Barchasi behuda. Ketdim siqilib,
O'ylarim sochilgan. Hislar uvada...
Bu mahzun holimga kulmoqmi bo'lib
Tong esa shoshilmay tunni quvadi.

* * *

Qurshovdag'i
dovyurak jangchi
o'qdonida qolgan
eng so'nggi o'qdek
mening hayotimga keraksan,
Sevgi!


* * *

Kechikkan muhabbat, kechikkan sevgi
Baxtmikan, kulfatmi — bilolganim yo‘q,
Dilo‘rtar bu o‘ylar, bu his, bu sezgi
Go‘yo kul ostida qolgan laxcha cho‘g‘.

Gurlagan, betizgin alanga kuchin
His etsa, chatnagay tog‘-u tosh, qoya.
Ishqing otashida yonmoqlig uchun
Nahotki, bir nigoh bo‘lsa kifoya?

Qalblarda uyg‘ongan ajib bir tuyg‘u —
Bamisli ming yillar ummon qa‘rida
Nihon qolib, so‘ngrat topilgan inju.

Oyning o‘n beshimi?.. Qoldi narida!
Bizlarni ne kutar, bilmasman, yohu,
O‘n sakkizga to‘lgan olam bag‘rida!





* * *

Bu muhabbat garchi ko'hnadir,
Tuyg'ularim lekin rasida.
Men uchunmas u doston – dilgir,
Kerak emas hatto qasida.

Haqiqat shu: oshib o'ttizdan,
Muhabbatning tushdim dastiga.
Ginam ham yo'q nav-nihol qizdan,
Ko'p ulug' dard sevmoq aslida.

Qo'rqinch emas javobsiz sevgi,
Ishqqa yorlik o'zi kifoya,
Qalbda jo'shib bir dengiz – sevgi.

Nahot aql bo'lolmas doya,
Bu titragan vujudmi, soya?..
O yuragim, men nima devdim!?.



* * *

Hali tong otmadi, yo‘q, biror marta,
Ammo minglab tunning sochi oqardi.
Bugun kecha uchun ertadir, erta!..
Umidvor ishq shivirlab baqirdi.

Hislarni tiymoqqa yetmaydi kuchim,
Daryo bo‘lomagan ko‘zlarim namdir.
Muhabbat qasriga shoh bo‘lmoq uchun,
Bu g‘ussa, bu sitam, bu alam kamdir.

Oh, barin bilaman — shu qismat nasib,
Taqdiri azaldan bo‘lmasman xafa,
Garchi o‘zga baxtga edim munosib.

Qayda, axir, oyoq yetkunchalik yo‘l,
Yukunib borganda eng so‘nggi daf‘a
Boshimni silashga arzigulik qo‘l?!



Huvillagan yurak, huvillagan uy...
Qumsoat qumlarin elamas, ajab!
Olis xayollarga bandi bo'lgan o'y
Kechmish lahzalarni turar hijjalab.

Yomg'ir, rayhon isi... Yonish, o'ttanish –
Chuvalanar o'tgan kunlar tasmasi.
Injigan sevgini anglash, o'rganish...
Nahot ortda qolnish endi hammasi?!.
O'zim xato qildim.
Qismat beomon.
Bahorga yetibdur qay vaqt, qay zamon
Xas-xazon to'shalgan bog'lar osha kim?!

Uvol ishqimizning tumori – o'tmish,
Gilos dudoqlarning xumori – o'tmish,
Mening esa bugun kelar yashagim!..

KO'ROLMASLAR

Yurak yutib ahvolingni so'rolmaslar,
Na do'stlikka, na yovlikka yarolmaslar,
Ich-ichidan kuyib-kuyib tutar faqat,
Ko'rolmaslar!

Sirtdan si po, botinida botmon ko'mir,
Yuragida hasad qurti g'imir-g'imir,
Insoftiman, deb chiranan butun umr,
Ko'rolmaslar!

Yutug'ingni ko'rsa tamom – qiynaladi,
Lekin doim atrofingda aylanadi,
Gurunglarda sen haqingda chaynaladi,
Ko'rolmaslar!

So'z berilsa, yaldoqlanib gapiradi,
Nafs payida ko'piradi, gupu radi,
Tuzing ichib, tuzlig'ingga tupu radi,
Ko'rolmaslar!

Buzoq haqda va'zin tinglab, kelar g'ashing –
Sut ichmoqdan qaytaradi har dam shashting.
O'zi pinhon paqqos urar buzoq go'shtin,
Ko'rolmaslar!

To'q ko'rinsang, ochligidan nolinadi,
Tag'in yalang'ochligidan nolinadi,
Biroz merov, gojigidan nolinadi,
Ko'rolmaslar!

Do'laytirib ko'zlarining paxtasini,
Mahtal yashar imosiga otasining...
Kutar hatto padarining xatosini,
Ko'rolmaslar!

Nomukammal yaralgandir hayot, deydi,
Men piyoda, qaydan unga bu ot, deydi.
Azal-oxir o'z boshini o'zi yeydi,
Ko'rolmaslar!

O'TMAS PICOQ

Charm qinda, sopi naqshli,
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.
Tomoshabop, zap ko'rishli,
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.

Yoz issig'i, qish qorida –
Osiq turar uy to'rida.
Jilolanur sham nurida,
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.

Agar sirtdan bersang baho,
Har jihatdan to'kis, a'lo.
Pichoqmisan pichoq, ammo...
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.

Yumush chiqsa, shay turmagan,
Biror marta charx ko'rmagan,
Er qo'lida yurt qo'rmagan,
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.

Bari alam axir shunda:
Qayg'uda yo'q ilinj undan.
Yaramaydi yaxshi kunda,
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.

Qayda ta'bir, nega yo'yay?
Yoki qo'lni siltab qo'yay –
Bor deb emas, yo'q deb kuyay,
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.

Bordir naql – yodda tursin:
«O'ldirsa ham mard o'ldirsin!».
Senga o'xhash odam qursin,
O'tmas pichoq, o'tmas pichoq.

* * *

Yana ortga chekindi yolg'on,
Yana g'olib keldi haqiqat.
Lekin ne-ne dil bo'lib nolon,
Shu damni deb qon yutdi behad.

Bu g'oliblik nash'u namosi
Qalb zaxmiga bir malham kabi.
Yo'qdir uning kibr-u havosi,
Shukronalik erur nasabi.

Bahs va kurash tinmagay aslo,
Sergaklik shart har lahza, har on.
Ogohlilik boy berilgan asno
Yana qaytib keladi yolg'on!



IMZOSIZ BO'HTON BITUVCHIGA

Erinmay sanabsan yetti pushtimni,
Demak begonamas, tanish yo'rg'asan.
Tatib ko'rgan kabi birda mushtimni,
Buncha panalaysan, buncha qo'rqasan?!

Dulozor pastkashsan, ikki dunyong voy —
Chunki hech tuhmatdan hazar qilmaysan.
Onangni ko'pchilik bilar, hoynahoy,
Otang kim? O'zing ham balki bilmaysan...

2009



Yomg'ir yog'ar ezgin va ezgin,
Qayda uyqu? Tun ham cho'zilar.
Yopriladi o'ylar betizgin,
Shoda-shoda xayol uzilar.

Ushalmagan armon o'rtaydi,
Uvushadi nogoh yuragim.
Orzularim nahot qartaydi,
Bu dunyoga bormi keragim?..

Savol keskin bo'lmasa buncha:
Armonrezgi umr kuzida
Umidlar hech tugarmi g'uncha?

Bo'lish-bo'l mish taqdir izmida,
Yechilgan har mushkul tuguncha
Nisbat erur faqat O'ziga!

* * * * *

Sen ohista o'tding yonimdan,
Senga tomon nega bormadim?
O'tding shundoq jism-u jonimdan —
Chulg'ab meni tuyg'ular nadim.

Xayolingga bo'lsam-da asir,
Yurak yutib, yurak yormadim.
Qurmoq uchun ishqidan bir qasr,
Ko'z yosh bilan loyin qormadim.

Na-da yig'lab, na-da kulaman,
Umidim, orzumsan bilaman,
Bilolmayman faqat o'zimni.

Qancha yil, oy — sunbula, aqrab,
Yuragimda pinhona saqlab,
Aytolmayman, evoh, so'zimni!..



TO'RTLIKAR

Ko'klamni his etib, maysa nish bo'ldi,
Yoz o'tdi, kuz o'tdi, tag'in qish bo'ldi.
Hayoting tongida shomingni o'yla,
Dunyoga keldingmi, bo'lar ish bo'ldi.

* * *

Mehr yo'q mayinroq mening mehrimdan,
Qahr yo'q qattiqroq mening qahrimdan.
Bu fe'li nihonim yodda tut, ey do'st,
Bir kun kechar bo'lsang nogoh bahrimdan.

* * *

Xayolan umrimga to'nlar bicharman,
Qo'limda taxir may, nochor icharman.
Bu bedod falakning ishi ko'p jumboq:
Manzilim noayon, otni qicharman.

* * *

Ko'z ochib tiriklik tuprog'in ko'rdir,
Tuproqda o'tganlar urpog'in ko'rdir.
Besh kunlik makonda shod o'lmadim, oh,
Vale dard-hasratning ko'prog'in ko'rdir.

* * *

Toleimga taqdir nechuk qovoq uydi,
O'rtanmoqdin necha oy, yil bag'rim kuydi.
Sen deb qancha kuyib-yonsam, gulim, ajab,
Hijron otliq balo meni shuncha suydi.



* * *

Qachon vafo qilgan vafo toparkan?
Qachon jafo qilgan jafo toparkan?
Och-nahor yotgan it qopog'on bo'lsa,
So'ngak tashlar bo'lsang, hayhot, qoparkan!

* * *

Oh, dunyo bag'ritosh, bilmaysan, ey dil,
Boshingda malomat toshlari chil-chil.
Bu toshlar qaydin deb, ko'rmoqchi bo'lsang,
Manglayingda qotgan qonni surma qil.

* * *

Manmanlik dardiga chalingan bemor
Tuzalib ketmog'i hargiz ko'p dushvor.
Ul nokas xudolik da'vosin qilib,
Shu dard-u baloga bo'lgan giriftor.

* * *

Hayot so'qmog'idir goh baland, nishab,
Baqamti kelgandek sahar ila shab.
Nechun qayg'u cheksin oshufta dillar,
Kimdir yashar bo'lsa g'iybatni kavshab.

* * *

Bu shirin yolg'onning shakaridan qo'rqi,
Xushomadgo'ylarning aytaridan qo'rqi.
Zabunlar holiga kulmoqdin saqlan,
Charxi kajraftorning qaytaridan qo'rqi.



* * *

Bugunga mas'ulmiz, bilsang, asli biz,
Bir ezgu nom ila qolsin ismimiz.
Kecha-ku yo'q edi bizdan bir nishon,
Erta ham bo'lmaydi shaksiz jismimiz.

* * *

Kelsak – yarashadi muhabbat uchun,
Kulsak – yarashadi muhabbat uchun.
Ishq debon sarg'arib, laxta qon yutib,
O'lsak – yarashadi muhabbat uchun.

* * *

Shukr qil, nolima – biri kamlikdan,
Asrasin, zar debon ko'zi namlikdan.
O'z qadrin anglagan har banda uchun
Ulug'roq baxt yo'qdir xotirjamlikdan!

* * *

O'nglaguvchi o'zing ko'rgan tushimni,
Tizguvchi bir ipga yoz-u qishimni.
Ollohim, ne bo'lsa, o'zingdan ko'ray,
Bandaga tushgulik qilma ishimni.

* * *

Shakar u, zahar u – so'zdan ogoh bo'l,
Mehr u, qahr u – ko'zdan ogoh bo'l.
Goh mamnun, goh mahzun, lek zamin tomon
Cho'kib borayotgan o'zdan ogoh bo'l.

* * * DAURINE

G'am chekma, garchi zar ko'proq topmading,
Yo mansab, e'tibor xo'broq topmading.
Dod desang arzigay o'tar dunyoda,
Bir munis, mehribon hamroh topmading.

Mening xayolimni band etgan zebo,
Sen kabi go'zalni ko'rghanmi dunyo?
Men seni yulduzga qiyos etolmam,
Yulduzlar sanoqsiz, sen esa tanho.

* * *

Obod husning ila ko'p lol etasan,
Serishva nigoh-la behol etasan.
Bu xasta ko'nglimga rahm qilmasang,
Bir kun yosh umrimni uvol etasan.

Ayta qol, sevmoqlik, azizam, nadir?
Ko'ksimda bir og'ir dard-alam nadir?
Birgina nigoh deb jondan kechmaklik,
Chin sevgi bo'lurmi yoki kam, nadir?



SHUURDAGI CHAQINLAR

Yolg'izlik – eng buyuk ustoz. Hech kim bosib o'tilgan yo'l, ortdagи umr haqida yolg'izlikchalik to'g'ri saboq berolmaydi odamga.

* * *

Dunyo bamisoli bir bozor. Birov kiradi, birov chiqadi. Muhimi: quruq kirib, quruq chiqmaslikda.

* * *

Qancha kam uxlasang, shuncha ko'p yashaysan.

* * *

Tarjima asar birovning sozida boshqa birov chalgan kuyga o'xshaydi. Faqat uning qay darajada muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan keyingi sozandaning iste'dod va mahoratiga bog'liq.

* * *

Yovqurlik bobida bu ham bir dastur –
Ajdodlar o'gitin zo'ri bo'ladi:
«Bolangni yo'lbarsim, sherim deb o'stir,
Ulg'ayib, hech qursa, bo'ri bo'ladi!»*

* * *

U aldrovlardan shunchalik yurak oldirib qo'yganki, sehrlangan qurbaqa ulkan ilon domiga beixtiyor intilgani kabi firibgarlar qo'ygan tuzoqqa tushgani tushgan.

*Rivoyatlarga ko'ra, turkiy qavmlar bo'rini muqaddas deb bilib, uni juda e'zozlashgan.



* * *

O'gitim shul: dag'i bag'rimni tilmagin derdim,
Yaxshini bilmasga yaxshilik qilmagin derdim.
Nedinkim ko'p donolar bir vaqt aytib ketmishlar:
«Nokasga salom berdim, qirq tanga tovon berdim!»

* * *

Bu nusxa ancha-muncha nazarkarda odamlar
toifasidanman deb, maqtanib yuradi. Bo'lsa bordir. Chunki
uning boshiga baxt qushi sira qo'nmagan bo'lsayam,
birdamas-birda «o'tirib» ketganligi aniq...

* * *

Hamma narsasi badastir odamning hayotida favqulodda
quvonchli kunlar kam bo'ladi.

* * *

Men bugun yozgan she'rim haqida siz bilan istagancha
bahslashishim, uni qaytadan yozib chiqishim mumkin. Lekin
kechagi she'rim xususida... Meni kechirasiz-u, siz ertaga
ham ayni damdag'i haqiqatimga tamomila sobit qolaman
deb qattiq ishonayapsiz chamasi?

* * *

Bir marta sotgan odam... Ikkinchchi marta ham sotadi.

* * *

Yaxshi nom olmoq ilinjida o'zi va yaqinlariga nohaq
jabr qilgan odam adolatsizdir.

* * *

Qonunni do'st tutgan har inson,
Hayotda qoqilmas hech qachon.



* * *

Maqtanchoqlik ko'chasiga kirgan kimsa, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, oxir-oqibat xudbinlik botqog'iga yuztuban qulaydi.

* * *

Xudbin kimsaning ochko'z va beandishaligini, faqat shu bugunni deb, yolg'iz qorni uchun talashib-tortishib yashashini qaysidir ma'noda oqlash ham mumkindek... Chunki bu toifa odamlarning ertasi yo'q-da!

* * *

U kutishni o'lguday yomon ko'radi. Shuning uchunmi, har doim uchrashuv belgilangan joyga, albatta, kechikib boradi.

* * *

Sershubha odamdan iloji boricha uzoqroq yurgan ma'qul. Bundaylar hadik va qo'rquv iskanjasida oxir-oqibat eng yaqin kishilarini ham gumon daryosiga g'arq qiladilar.

* * *

So'zni so'zdan farqi bor, degan ibora ayni paytda shu so'zni aytuvchilarning o'ziga ham birdek tegishlidir. Chunonchi oddiygina tirikchilikni-da qo'l uchida o'tkazib yurgan notavon kimsaning to'kis hayotni qoralab aytgan gaplari hech qachon yurakdan chiqmaydi.

* * *

Yugurik umr bu, bir dam sustlashma,
Ildam bo'l, har nega to'xtab, qasdlashma.
Panadan tosh otgan notavon, axir,
Yanchaman deb uni hargiz pastlashma.



12 AYRUVZI * * *

Tilni tiyib yurmoq, unga huda-behuda erk beravermaslik xayol va tafakkurga qanot bag'ishlab, olamshumul kashfiyotlarga zamin yaratadi.

* * *

Ayonlari jur'atsiz, quyonyurak bo'lgan podsho sultanatida adolat ustuvorligi haqidagi har qanday gap quruq safsatadan boshqa narsa emas.

* * *

Bu inson ko'p halol, oppoq, ishonay,
Xokisor bamisli tuproq, ishonay.
Lekin gumashtasi muttaham ekan,
Ul ta'rif-tavsifga qandoq ishonay?!

BO LA JON LAR SAHIFASI

SOG'LOM AVLOD QO'SHIG'I

Biz baxtiyor, sog' avlod –
Shir-u shakar, ham qandmiz.
Tinchlik bilan ko'p obod
Hur Vatanga dilbandmiz.

Kitob desak, nur desak,
Maktab tomon yo'l bosib –
Farzand bo'lmoq zo'r istak
Ajdodlarga munosib.

Istiqbolda porlaydi,
Amir Temur dahosi.
Jasoratga chorlaydi,
Manguberdi nidosi.

Bobolarning orzusi
Bizga juda yaqindir.
Chunki erkning ziyosi
Fikrimizda chaqindir.

Tutsak ilm-fan tug'in,
Shaksiz buyuk ertamiz.
Ona yurtning dovrug'in
Dunyolarga eltamiz!

QUVNOQ KUN

Kelsa birinchi aprel,
Sevinchlarga to'lar dil.
Jam bo'lib barcha o'rtoq,
Hazildan qilib «to'qmoq» –
Kamchilikdan aytamiz,
Kulib aytmay... qaytamiz!
Kim «ikkichi», «dangasa»,
Izza bo'ladi rosa.
«Yolg'onchi», «chaqma-chaqar»,
Ayting-chi, kimga yoqar?
Kimki darsga kech qolar,
«Toshbaqa» deb nom olar.
Birov andak kekkaysa,
Burunchasi tikkaysa,
Qoldirib uni yakka,
Qilajakmiz kalaka.
Qunt qilib har bittamiz,
Hazil she'rlar bitamiz.
Ko'chiradi kam-ko'stsiz,
«Ko'chirmachi» do'stimiz.
Qilmaydi hech kim araz,
Bu kulgilar beg'araz.
Shu kun dilni ochamiz,
Illatlardan qochamiz.
Hamma deydi shod, mamnun:
— Xush kelibsan, quvnoq kun!

G'ALATI MUSOBAQA

Xo'roz sohil oldida,
G'ozni ko'rib qoldi-da:
«He, maqtanchoq g'oz, — dedi,
Bor hunaring oz, dedi.
Chaqir barcha-barchani,
Ham qarg'avoy-g'alchani.
Sen haqingda u juda,
Lof uribdi behuda.
G'oz hammadan zo'r, debdi,
Bilmaganlar ko'r, debdi.
Endi o'zing shu fursat,
Zo'rligingni bir ko'rsat,
Kuch sinashgin men bilan.
Maqtanmasin sen bilan
Bundan buyon biror qush.
Qani bo'l, maydonga tush!»
Chorlab do'st-u yorlarni,
Shu atrofda borlarni
Kim epchil-u kim chaqqon —
Sinar bo'pti ikkovlon.
G'oz ishlatib aqlni,
Eslabdi bir naqlni:
Bir kesgan yetti o'lchab,
Folib bo'lsa — ne ajab!?
«Qu ruqlikda xo'rozga,
O'zi ancha darozga
Yetib bo'lmas, shubhasiz,
Biroq uning bir ojiz,
Biroz nozik joyi bor.
Garchi raqib ko'p nomdor,
Lek suzishni bilmaydi»,
Debon g'oz sal jilmaydi.
Musobaqa boshlanib,
Xo'roz oldga tashlanib,

Chopar ekan ko'p shodon,
G'oz burildi soy tomon.
Ana, u suvgə yetdi,
Zumda ilgarlab ketdi.
G'ozni qilolmay ta'qib,
Xo'roz qoldi tutaqib.
Yer tirnab «qu-qu» ladi:
— G'oz nimaga kuladi?
O'rganvolay suzishni,
Ko'rsataman o'zishni!..



O'GIT

Keksalar der: «Bo'lgin ehtiyot,
Sinalmagan bo'lsa agar ot!»
Hayvonotning bariga albat –
Tegishlidir, bilsang, bu hikmat.
Ko'rinsa ham ular beozor,
Hushyorlikni yo'qotmoq bekor.
Hayot shunday: duch qilsa taqdir,
It ayniqsa xatarliroqdir.
Chiqib qolsa yo'lida banogoh,
Qochma sira, yurgin sekinroq.
O'ylamaki, faqat huradi,
It qochganni yomon ko'radi.



KIM AYBDOR?

Ona jahl qiladi:
«Hech, kirmading so'zimga/
Og'rib qolsa tomog'ing,
Hamma ayb o'zingda».

Bir chekkada qimtinib,
Yelka qisib G'olibsher:
«Muzqaymoq sovuq bo'lsa,
menda nima ayb», der.



DO'Q QILDI

Tabiatda eng zo'ri
Momaqaldiroq ekan.
Gumburlatsa osmonni
Hamma qaltiroq ekan.

Bizlar toqqa otlangan
Yakshanba ham «do'q» qildi.
Ko'p orziqib kutilgan
Dam olishni yo'q qildi.

Qurbona qila barcha seviroq.

Qiz qutarki qayta barcha.

Boz qurigani qilmoq bo'libdi.



MAYMUNNING HIKOYASI

Changalzorda bir zamón,
Avji tiriklik fasli.
Bizlarga esh, birodar
Bo'lgan odamzod nasli.

Yon qo'shni-yu jon qo'shni –
G'orlarda yashaganmiz.
Neki topsak, qizg'anmay
O'rtada oshaganmiz.

Shoxdan shoxga sakrashib,
Terganmiz banan, kokos.
So'ng taqsimlab olganmiz,
Jon-u jigarlargha xos.

Shunday ahil edik biz –
Birgalikda qilib ov.
Yo'lomagan biz tomon
Hatto qonxo'r yirtqich yov.

Beminnat yoping'ich deb,
Mo'yimizni asrardik.
Aqlning balosidan
O'yimizni asrardik.

Bilmadim ne xayolda
Fikr qildi odamzod –
Ketib ilm ortidan
Bo'ldi bizga yetti yot!

Asli azal do'stlikka
Shundan raxna tashlangan.
Ustara kashf etilgach,
Begonalik boshlangan.

Onam qildi himoya.

TULKINING HIKOYASI

O‘rmon hukmi ko‘p beshafqat,
Omad kular zo‘rga faqat.
Zaif bo‘lsa qaysi hayvon,
Pusib yashar u notavon.
Birda bo‘ri turtkilaydi,
Birda qoplon naq talaydi.
Bizlarga ham ushbu qismat –
Begonamas, bersam nisbat.
Izlab-izlab men bechora,
Topdim oxir shunday chora.
Sovg‘a-salom qilib bordim,
Yo‘lbarsoyga ko‘ngil yordim:
«Suyanch topgan hamma, dedim,
Bo‘ling menga amma, dedim.
Hayotimni qayta quray,
Jiyan bo‘lib davron suray.
Xizmatni-ku qotiraman,
Tovuq tutib keltiraman.
Oliy zotsiz, oliy maqom,
Birga yurmoq – faxr mudom...»
Maqtov so‘zni xo‘p do‘ndirdim,
Yo‘lbarsoyni chin ko‘ndirdim.
Hoy mudroqlar, uyg‘onganlar,
Yutug‘imdan quvonganlar,
Hasad emas, qiling havas,
Pochcha bo‘ldi menga yo‘lbars!

HIMOYA

Bolalarni xalqaro
Himoya qilish kuni.
Ota-onam o'zaro
Qildi himoya meni.

Avval bayram bahona
Tomoshaga chiqdik biz.
Tomoshamas ozgina
Mashmashaga chiqdik biz.

Bu ne holat (uh sho'rim),
Bo'lsa hamki havo dim,
Kiyim kiydim zap po'rim,
Ro'dapoga aylandim.

Onam dedi: «Gapim shu,
Yoping'ichni ilasan!
Hozircha yoz, qishda-ku,
Mayli, o'zing bilasan».

Otam dedi: «Hayvonot
Bog'ini borib ko'rsak».
Onam der: «Charchar, hayhot,
Bolani asrash kerak».

So'ngra dedi: «Arg'imchoq
Ucha qolsin dadasi...»
Otam dedi: «O'ylab boq,
Aylanmasin kallasi».

«Bir yayrasin cho'milib», —
Otam dedi nihoyat.
«Shamollab qolmasin» deb
Onam qildi himoya.

Keyin menga zarqog'oz
Muzqaymoq olib berdi.
Otam qilib ko'ksin g'oz:
«Kasal qilasan» derdi...

«U yaxshimas, bu yomon...»
Onam girdikapalak.
Yetmasin deb bir ziyon,
Otam tag'in jon halak.

Qilib meni ko'p zada,
Aytishdi adi-badi.
Xullas ikki o'rtada
Bayram hech tatimadi.

Mehr garchi ko'p shirin,
Me'yor bo'lsa... kifoya.
Izlar bo'ldim noo'rin
Himoyadan himoya!



YALQOV MUSHUK

Yalqov mushuk,
Anqov mushuk,
Xur-xur qilib,
Huzur qilib
Yotaverar.
O'taverar
Sichqon u yon,
Keyin bu yon,
Ushlamaydi –
Xushlamaydi
Mehnatni hech.
Erta-yu kech
Xur-xur qilar,
Huzur qilar.
Bersang ovqat
Yeydi faqat.
Uni bundoq
Tekintomoq
Qilgan o'zim –
To'g'ri so'zim.
Mushukcha yosh,
Biroz bebosh
Vaqt edi.
Tutib yerdi
O'zi sichqon.
Chopib har yon,
O'ynar edi,
Quvnar edi.
Shunda alqab,
Silab-siypab,
Erkalatdim,
Moy yalatdim.
Bo'lib ko'p xush,
Berdim sut-go'sht.

Xullas kalom, DQJAY
Sarxil taom
Yeb o'rgandi.
Ko'ring endi:
Bersang yeyar,
Esnab qo'yar.
O'ynamaydi,
Quvnamaydi.
Menga boqmas,
Ortiq yoqmas,
Yalqov mushuk,
Anqov mushuk!..



JASUR QO'ZICHOQ

Barra po'stin qo'zichoq,
Ko'zlar misli munchoq.
Erta tongdan dik turib,
Qir-adirda yugurib,
O'ynab-quvnab tinmaydi,
Charchoq nima bilmaydi.
Ona qo'y ko'p xavotir:
«Uzoq ketma, bolam, der,
Shu atrofda bo'ri bor.
Yemish izlab u g'addor
Joningga qasd qilmasin,
Jigar-bag'rim tilmasin.
Bu yovuzdan kuyganman,
Yo'qotishdan to'yganman...»
Tinglab ona so'zlarin,
Yurakdag'i bo'zlarin,
Qasos yonib ko'ksida,
Qo'zichoq der: «O'ksima!
Ona, turma mung'ayib,
Erta o'sib-ulg'ayib,
Katta qo'chqor bo'laman,
Behad kuchga to'laman.
Shoxim bo'lar burama,
Uyog'ini so'rama.
Ko'zimda chaqnar olov,
Titrab-qaqshar barcha yov,
Dosh berolmay zARBIMGA,
Lol qoladi harbimga.
So'zim tursin yodingda,
O'zim yetib dodingga —
O'sha qonxo'r bo'rini
Quritaman sho'rini!»

BETAMIZ KURKA

Hovlimizda kurka bor,
Lekin fe'li juda tor.
Yurgandek go'yo mudrab,
Qanotini zil sudrab,
Baqbaqasi osilib,
Burni sabzidek so'lib,
Topgan kabi zo'r ayb,
Doim turar xurpayib.
Parrandaning dumbuli,
Tinmaydi «g'uli-g'uli».
Jonga tekkan ovozi,
Hamma undan norozi.
Qizil rangni xushlamas,
Nogoh ko'zi tushsa, bas:
Xoh nonushta, tush payti,
Dag'dag'ani boshlaydi.
Bir piyola choyni ham,
Ichib bo'lmas xotirjam.
Bo'lgan edi bir saboq
Tushunmabdi u mutlaq.
Ehtiyyot shart dadamdan,
Jahli chiqsa daf'atan
Rahm etmasdan biroz,
Erta qichqirgan xo'roz
Kunin solar boshiga,
Boqmay ko'zin yoshiga.
Patin yular bittalab,
So'ng etini nimtalab,
Shartta qozonga bosar,
Yoki qaynatma osar...
Shundoq tugar qisqasi,
Betamizning qissasi.

TOSHBAQANING HASRATI

Istaganda kiyvolib,
Istaganda yecholsam,
Xo'p bebaho, der edim,
Egnimdag'i toshkosam.
Yomg'ir, do'lidan asraydi,
Pisand emas tosh, tikan.
Lekin ba'zi paytlarda
Ziyoni ham bor ekan...
Biror yoqqa otlansam,
Manzil unmaydi sira.
Bugungidek holat ham
Qilar ko'nglimni xira:
Ko'kka boqib yotibman,
Najot kutib lol, g'arib.
Chunki bitta shumtaka
Qo'ygan meni to'nkarib.



M U N D A R I J A

She'riy teranlik sari. <i>Erkin A'zam</i>	112
Vatan	113
Shahrisabz qo'shig'i	116
«Barglarida shabnamni tutib...»	118
«Endi ortiq inonmoq qiyin...»	119
Baxtsiz oy haqida qo'shiq	120
«Taqdiri azaldan qochib...»	121
Keksa daraxt haqida ballada	122
«Mo'jiza kutmasman...»	123
«Umr o'tsa q'aflatni kecha...»	124
«Bardoshim tugadi...»	125
«Tun qaridi...»	126
O'tinch	127
«Quyosh ko'kka qadalgan...»	128
Sonet 1	129
«Siz menga keraksiz...»	130
Saboq	133
«Maysani maysadek...»	134
Ko'k gumbaz	135
«Bag'ringda besh kunlik...»	136
O'zbekistonning ilk jahon championiga	137
«Dunyo, qo'yning to'la...»	138
Yangi yil oqshomida	139
Ko'ngil manzaralari	140
«Balki dunyodagi jamiki...»	142
Bir kun	143
«Ko'm-ko'k maysalardan...»	144
Armon	145
«Qo'rhma, bu xavf...»	146
«Bir so'z bor...»	147
Iltijo	148
«Boshingda ne xayol?...»	149
«Tortar xayolimni...»	150
Xiyonat	151
«Osmonning mulkida...»	152
Xalq ohangida	153

«Rangin bolalikka...»	154
Maktub	155
«O, buyuk muhabbat ...»	156
«Qon sachradi...»	157
«Yigirma bir yilki...»	158
Sonet 2	159
Faxr	160
«Ilohi, cho'maman...»	161
Tazarru	162
«Ming bitta xavotir...»	163
«Bilaman, sen mendan...»	164
«Juda tez ishonding...»	165
«Sukunat ko'ksida...»	166
Chorlov	167
Orzu	168
Oshiq do'st maktubi	169
Tush	170
Nekbinlik	171
Ehtiyotkor odam so'zları	172
«Taraddud sezilar...»	173
«Quvontirmas qaysi otani...»	174
«Bir farahli kunlar...»	175
Izhor	176
Umr poyonida Muqannaning xayolidan kechganları	177
«Hamma yoqda atirgul...»	178
«Tong kuladi go'dakday...»	179
Vatan surati	180
«Men sendan olislab...»	181
«Sen ketding...»	182
Hech narsa so'rama	183
«Yuzing shu'lasidan...»	184
«Quyosh o'tib ketdi...»	185
«Qurshovdagı ...»	185
«Kechikkan muhabbat...»	186
«Bu muhabbat garchi...»	187
«Tong otgani yo'q...»	188
«Huvillagan yurak...»	189
Ko'rolmaslar	190
O'tmas pichoq	191
«Yana ortga chekindi...»	192

Imzosiz bo'hton bituvchiga	193
«Yomg'ir yog'ar ezgin va ezgin...»	194
«Sen ohista o'tding yonimdan...»	195
To'rtliklar	196
Shuurdagi chaqinlar	200

Bolajonlar sahifasi

Sog'lom avlod qo'shig'i	204
Quvnoq kun	205
G'alati musobaqa	206
O'git	208
Kim aybdor	209
Do'q qildi	210
Maymunning hikoyasi	211
Tulkining hikoyasi	212
Himoya	213
Yalqov mushuk	215
Jasur qo'zichoq	217
Betamiz kurka	218
Toshbaqaning hasrati	219

СИРОЖИДДИН РАУФ

СИЗ МЕНГА КЕРАКСИЗ

Шеърлар

«Sharq» нашриёт-матбаба
акциядорлик компанияси
Бош таҳририяти
Тошкент – 2011

Мухаррир: З. Мирзахакимова

Бадий мұхаррир: *Т.Қаноатов*

Техник мұхаррир ва сағиғаловчи: *Л. Хижова*

Мусаҳҳилар: Ж. Тоирова, М. Зиямұхамедова

CE-10-0010-B

Этилди 27.10.2010. Бичим

босма. Шартли босма то
засе 1852 1

3000 нусха. 1258-сон бу


ширёт-матбаа акцияде

босмахонаси.

шкент шахри. Буюк Т

акент шарын, Бүкөн

«Sharq» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси
босмахонаси,
100000, Тошкент шаҳри, Буюк Турон кӯчаси, 41.



Сирожиддин Рауф 1967 йил Қарши шаҳрида туғилган. ЎзМУ журналистика факультетини(1992 йил), Тошкент давлат юридик институтини (2002 йил) битирган. “Йиглаётган ой” (1994 йил), “Кўкгумбаз” (2001 йил) қаби шеърий тўпламлари нашр этилган. Ўзбекистон Ёзувчilar уюшмаси аъзоси. “Шуҳрат” медали билан тақдирланган.



ISBN 978-9943-00-427-6



9 789943 004276